

Umida ABDUAZIMOVA

MARVARIDLARIM



Toshkent-2013
"Chashma print"

UO'K: 821.512.1

KBK: 86 (5A)

A16 U. Abduazimova

"Marvaridlarim" /she'rlar/ U. Abduazimova.

"Chashma print", 2013-128 bet

Bu kitobga shoira Umida ABDUAZIMOVAning
turmush tajribalari asosida to'plangan
jazzi she'rlari va qo'shiqqa aylangan satirlari jamlandi.

UO'K: 821.512.1

KBK: 86 (5A)

ISBN 978-9943-350-45-8

©Umida ABDUAZIMOVA
Original maket "Chashma print", 2013



SO'Z BOSHI

Ayolman, zebu ziynatlar ichida duru marvaridlarga ixlosim baland. Ehtimol, bunday taqinchoqlarimni qachonlardir misqollab to'plaganim bitta "Jiguli" bahosiga sotib olganimdandir?..

Endi esa, yo'llar ochilib, bozoru do'konlarda bunday taqinchoqlar "sochilib" yotganini ko'rsam, oldidan befarq o'tib ketolmayman, sotib olishdan o'zimni tutolmayman. Bir kuni bo'ynimdagi marvaridlarim sochilib ketdi. Buni kimdir yaxshilikka,-dedi, kimdir esa g'alati bosh chayqab, ko'nglimni xijil etdi.Ularni terib olarkanman, bildimki, taqinchoqlarning sochilishi bor, demak, sanab, ipga tizish darkor.

Ammo ularni har safar sanayman-u, sanoqdan adashaveraman. Hali u yer, hali bu yerdan topib, yangitdan ipga tizishga shoshaveraman. Bu yozganlarimni ham bejiz "Marvaridlarim" deb nomlamadim. Ularning qadri qanchaligini o'zingiz baholarsiz, ammo mening bilganim - bunday yozishmalar ko'ngil kechinmalarim, uchrashuv va suhbatlarim aro ko'plab sochilib yotibdi. Ijodkorning qamchisi - qarsak, deydilar. Ularni idrok elagingizdan o'tkazib, rost yozibdi, to'g'ri gap aytibdi deb, menga xayrixoh bo'lsangiz, ilhom chashmalarim mavjlanaveradi, avjlanaveradi...

Muallif.



KUYINCHAKLIK

Umida Abduazimova bizning adiba va shoiralarimiz orasida o'ziga xos ovozga ega bo'lgan ijodkor hisoblanadi. U bilan ko'p yig'inlarda, ijodiy safarlarda bo'lganimizda shoiraning qanchalar borliqni keng tushunadigan ajoyib inson ekanining guvoxi bo'lganman. Umida samimiyl inson. Bu shoiramizning hafa bo'lgan vaqtini yoki kahrlanib g'azablanganini shahsan men ko'rмаганман. Menimcha bunday xolat unda hech qachon bo'lмаган bo'lsa kerak. Chunki hamisha Umidaxonni tabassum bezab turadi. Bu juda ham ajoyib hislat. To'g'ri, inson umri faqat xursandchiliklardan iborat emas. Lekin har qanday sharoitda ham odam ana shunday o'zini ko'rsata biladigan, tuta oladigan bo'lishi kerak. Yigit kishining jigari kuysa ham kulib turadi, deyishadi. Bu faqat yigit kishiga emas, balki ayollarimizga, umuman insoniyatga qarata aytilgan.

Mana shu samimiyat uning she'rlarida ham, ocherklari, xikoyalarida ham ko'rinish turadi va uning tabiatida ham bilinib turadi. Ikkinci bir



yaxshi jixati Umidaning kuyinchakligidir. Ko'plab suhbatlarda bo'lganimizda nimadandir ranjib qoladimi, kimdir qandaydir so'zni noto'g'ri ishlatadimi yoki urf-odatlarimizga hilof ravishda yoki tegib ketadigan so'z aytadimi, bundan kuyinib ketadi, Umida. Uning boshqalardan farqi shuki, faqat gapirmaydi balki yozadi ham, yozganlarini matbuotga chiqaradi ham. Bu juda ham to'g'ri, chunki uning fikrlarini biror odam o'qib, o'ziga hulosa chiqarib oladi. Axir ma'rifat ularish, targ'ib qilish ham mana shunday xolatlarda namoyondir zamondosh ijodkor uchun.

Samimiylit va kuyunchaklik hissi tug'ma boladi. Uni tarbiya qilib yuzaga keltirish qiyin. Umidada mana shu fazilatlar tug'ma ekanligini doim ko'raman. Unga ijodiy kamolot istab, yangidan-yangi asarlar, ular bilan birqalashib keladigan yutuqlarni tilab qolaman.

*Muhammad ALI,
O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.*



MEN QUROL YASAMAYMAN

*Men qurol yasamayman,
Ishim yo'q yoy-kamonda.
Qo'limga kelib tushar
Ular dushman tomondan.*

* * *

*Tepaga ilgarilar
Kimsa yiqilib ko'rsin.
O'ng ko'zi kulsa agar,
Chap ko'zi yig'lab tursin.*

* * *

*Qo'l yuvib yesang taom,
Boy-badavlat etkazar.
Yeb bo'lib yuvsang, tamom
Gunohlaring ketkazar.*

* * *

*Kuzda ko'char qushlarning
Na don-suvi, yuki bor.
Tavakkal deb Allohga,
Yashash tarzin uqib bor.*

* * *

*Sayrar qushcha bexabar
Tashnalik azobidan.
Panoh tila, besabr
Nafsning g'azabidan.*

* * *

*Hayot qaynar bozorda,
Bozorda shoh, gado bor.
Sukunatdir mozorda,
Hamma birdek barobar.*

* * *

*Kim birovga qazir choh,
O'z bo'yiga o'lchasin.
Kim zulmkor, et, ogoh,
Qaqshatar o'g'ilchasin.*

* * *

*Kuning farog'atlidir,
Tuning halovatlidir.
G'am-firoq ko'rmayin hech
deb, kibru havodan kech.*

* * *

*Tog' yonida qichqirib,
Nimani aytdim,
Aks-sado bo'lib keldi
O'zimga qaytib.*

* * *

*Ozga qilmoq qanoat
Badavlatlikka da'vat.
Qumni ham etar oltin
Ko'tarinki kayfiyat.*

* * *

*O'zim o'zimga do'stman,
O'zim o'zimga dushman.
Dushmanni bilmay do'stdan,
Dilgir dilimda pushmon.*

* * *

*Shogirdning qalb izhori,
Ustoz uchun izzat taxt.
Ustozning iftixori,
Bayramona kayfiyat.*

* * *

*Ezmalanma ezilib,
Siring, sirting sezilib.
So'ng ezmaga elanib,
Yurma obro' tilanib.*

* * *

*Eslayverib- uyquchi,
O'ylayverib-bedorsan.
O'ziga yetmas kuchi,
Sen qanaqa bemorsan?*

* * *

*So'ylaganda so'ylasang,
Kuylaganda kuylasang,
Hohishingga yarasha
Yashasang,deyman,
-Yasha!*

* * *

*Umr qisqa, chopag'on,
Izlaganin topag'on.
Qoldirib ket otingni,
Muhrlab hayotingni.*

* * *

*Menga tabassum qil, yor.
Tabassumda ertam naqd.
Bir-birovga muhabbat
Bilan boqmoqlikda baxt!*

* * *

*Saxovat - saodatdir,
Badbaxtlikdir baxillik.
Saxiyga toqlik yotdir,
Uyin bezar ahillik.*

* * *

*Dushmanni ham do'st etar
Har qanday damlar:
Xushxulq, hushchiroy, xurram
hotam odamlar!*

* * *

*Taqdir qiziq, dunyo qaytar,
Menga biri sirin aytar.
Men boshqaga sirim aytsam,
Sirim sirlar bo'lib qaytar.*

UZOQ UMR KO'RISHNING SABABI

Uzoq umr ko'rishning sababi nedir?

- G'aribu xastalarni beminnat yedir.

*Hasaddan parhez qilib, gina saqlamay,
Ta'magirlilik illatin qatag'on ettir.*

* * *

*Ilmiga amalsiz olimlar ham ko'p,
O'ziga o'zlari zolimlar ham ko'p.
Bu dunyo bozorga o'xshaydi, ajab,
Benaf, bekorchiga toliblar ham ko'p.*

* * *

*Dunyo borki, bor laganbardorlar,
Beg'urur, beor laganbardorlar.
Va lekin ular mansabdorgamas,
Mansabga zor-zor laganbardorlar.*

* * *

*Tavakkal ahlini qo'lllagay, Alloh,
Saodat yo'liga yo'lllagay, Alloh.
Ushshoqni azaldan aylar himoya,
Basharga tavbadan so'ylagay, Alloh.*

* * *

*Hovuzi borning bo'lzin balig'i,
Ko'klab ko'paysin moshu tarig'i.
U yo'q,bu yo'q,deb umringni ho'plar
O'g'il-qizingning qovoq solig'i.*

* * *

*Qayg'u-alam ustimga hujum etdilar,
Qaddimni dol, yuzimni g'ijim etdilar.
Bu hasrat daryosiga sen beadabni
Kibr keltirdi, endi sen jim,-dedilar.*

* * *

*Eslash kerak bo'lмаган иккита со'здан,
Birisi birov qilgan yomonlik ekan.
Qilgan yaxshililingni yashirgin ko'zdan,
Shundan gul hayotingda omonlik ekan.*

* * *

*Ko'ngilga qo'yib bersang nimalar qilmas,
Aqlga bo'y bermay ne nag'malar bilmas?
Ko'zgu bo'lib vaqtida o'zing oqla, dil.
Bachkana qiliqlardan o'zing saqla dil!*

* * *

*Bir guldan ilon zahar, bol yig'ar ari,
Saxiy qo'l bo'l, baxillik dardidan nari.
Solgan dasturxongamas, noz-ne'matgamas,
Mezbon ko'ziga qarar mehmonning bari.*

* * *

*Xalq ko'nglida saqlanar saxovatlilar,
Haq yo'lida charxlanar saxovatlilar.
Ulug' maqsad ishqida safarbar bo'lsa,
Har borada yoqlanar saxovatlilar.*

* * *

*Hirsdan pok qil dilingni, rohat toparsan.
Xor-zorlik istamasang, toqat toparsan.
Muloyimlik daraxtin soyasi-SOG'LIK,
Rizqingga loyiq oshu ovqat toparsan.*

* * *

*Mening ikki qal'am bor, meni Men qilgan.
Bittasi Ruh qal'asi, bittasi Jism.
Rux qal'amni charog'on qilay deb yelgan
Jism qal'amga qo'ydim Sog'lik deb ism.*

* * *

*Tanida bo'lsa kimning dardu balosi,
Bo'ynida bo'lsin albat duru tillosi.
Har ne taqinchoq bo'lsa chap qo'lga taqsin,
Yurakka bergay quvvat, ham bo'lgay taskin.*

* * *

*Ulkan dengizda ulkan baliqlar yashar,
Niyatiga yarasha kun ko'rар bashar.
Quyosh bo'lsang, o'zgaga nur soch beminnat,
Torga tor dunyo, kengga kenglik yarashar.*

* * *

*Bu dunyo kapgiri - tinchimas yurak:
Yugurmak, ulgurmak, bezovta urmak!
Qiziq, tan olmaymiz ba'zan ketmoqni,
Guruchlar aro bir bahramand kurmak.*

* * *

*Mardlik yurakdag'i jasorat, zabtdir,
O'zbekchilikka chin ruhiy quvvatdir.
Tog'larni qarichlab o'lchashga tayyor
Mardlik- tilakdag'i g'alaba, taftdir.*

* * *

*Mard odamni taniysiz har lahzada:
Gapirmasdan ado etar ishini.
Maydalanib orttirmas ming dahmaza,
Hojatini chiqarar har kishining.*

* * *

*O'tgan ishga kuymoqning ofati bordir,
Kuyganning uyquchilik odati bordir.
Kelgusi ishni o'ylab g'am-alam chekkan,
Kishining uyqusizlik holati bordir.*

* * *

*Ochiq yuz, shirin so'zli, muloyim bo'lgin,
Nazokatli, ishvali guloyim bo'lgin.
Kayf-safo, ishrat bilan o'tmasin yoshlik,
So'nggi pushmon neligin iloyim, bilgin.*

* * *

*Sen birovning aybini ortib yurmagin.
Oq yo qora paytini tortib yurmagin.
Tuya yo ot emassan, tarozibon ham.
O'zingni o'zgadan xor etib yurmagin.*

* * *

*Har kim bilan aytishib, nifoq saqlama,
Qasos uchun payt poylab, pichoq charxlama.
Qarindosh-urug'laring ko'rganda quchib,
Ko'rmasang rizqin qiyib, po'choq taxlama.*

* * *

*Yurma nafsing yo'lida, qanoatli bo'l,
Nizolashma behuda, itoatli bo'l.
Hech kimsani o'zingdan past ko'rma, illo
Fosh etmagin siringni, sinoatli bo'l.*

* * *

*Baxil, ochko'z odamga oshnalikdan qoch,
Fitna-fasod yig'ishga tashnalikdan qoch.
Ular seni hech to'g'ri yo'lga solmaslar,
Bir muddatda oqargay bilsang shundan soch.*

* * *

*O'tganlarni aytib kim ont ichsa yolg'on,
O'zi o'zini maqtab qoniqsa yolg'on.
O'z yog'ida qovrilgan ilon osh bo'lib,
Tashnalik sabab zuluk qon ichsa yolg'on.*

* * *

*Hech kimdan hech narsani ta'ma qilmaslar
Xoru xaslik va pastlik nima, bilmaslar.
Kun-kun ora yod etib qarindoshlarin,
Na faqat payshanba yo jum'a kelmaslar.*

* * *

*Derlar, himmati borning qimmati bordir,
Mol-dunyosi bisyorning sumbati bordir.
Muruvvatni bilmaslar, himmat qilmaslar
Holidan xabar etmas chimmati bordir.*

* * *

*Men o'zimni o'zimdan yurdim qarz qilib,
Sabru bardosh, chidamni dilga farz qilib.
Boyu badavlat bo'lib tiklandim, qarang,
Ketdi qayg'u kulfatim mendan arz qilib.*

* * *

*Yaxshilar alomati ochiq chehrasi.
Shirin so'z, sertavoze sehr nafasi.
Yaxshilar, yaxshiliklar aro qorishib
Yashashga chog'langanning bor nasibasi.*

* * *

*Komp'yuter xotirasi to'lsa o'chirib,
Yengillatib olarman diskka ko'chirib.
Lekin ayting, yashayin miyamga qo'ngan
Chug'urlagan qushlarni qanday uchirib?*

* * *

*O'zim-o'zimga jabr qilib yashayman,
Go'yo dono, iboli bo'lib yashayman.
Ko'ngil yetgan yerkarga oyoq yetmaydi,
Yurak-bag'rimni tilib, tilib yashayman.*

* * *

*Yalinmaydi senga u, tilanmaydi sadaqa.
Tun-kuniga ega u, yashay boshlar sendaqa.
Chunki endi yangi kun, yaxshi kunga basma bas
Yaralangan yurakda uyg'ondi ishqiy havas.*

* * *

*Eslash kerak bo'lмаган иккита со'здан,
Birisi бирор ғилган ўмонлик екан.
Qilgan yaxshilигини яширгин ко'здан,
Shundan gul hayotingда омонлик екан.*

* * *

*G'ayratli, matonatli insonlar qani,
Har ne daxshat yenguvchi imkonlar qani?
Olamga haq nazari bilan boquvchi
Yomonlikdan parhezgar imonlar qani?*

* * *

*O'g'irlab ulfatimni, xarob etmangiz,
Oshirib kulfatimni, turob etmangiz.
Mol-dunyo o'g'rilar, kelng-u, ammo
Sevgim o'g'irlab, holim surob etmangiz.*

* * *

*Xulq-atvoring bilan xalq ichida yasha,
Go'zal tarbiyang-la balq, ishqida yasha.
O'zga aybin yoparlar o'z mavqeyin toparlar,
Yashash zavqin totarlar shunga yarasha.*

* * *

*Tonggi sabo, yorimning to'shagiga kir,
Quloq solmay qo'ygani-go'shagiga kir.
Men kimga to'g'ri qarab, qayga talpinsam,
Shivirlama sen menga, deya, o'sha kir.*

* * *

*Mansabdorga bir diplom kifoya qilmas,
Ta'limu tajribani kim ko'zga ilmas?
Odamlarni ortidan ergashtirar kuch
Iqtidori bor-yo'g'in ayting, kim bilmas?*

* * *

*To'g'ri so'zlab ko'ngilga kim achchiq tegdi,
Terak tolga aylanib boshini egdi.
Bildimki to'g'ri kishi bo'lmasin qayda,
Serhosil ham sermeva daraxtin ekdi.*

* * *

*Meni qurbon qilishdi to'g'riliqimdan,
Bilib-bilmay vaqtimga o'g'riliqimdan.
Har daqiqam-oltinim hayf ketdi ba'zan,
Adoman go'r tuzatmas bukriliqimdan.*

* * *

*To'g'rilikka esh bo'lmay yashagan inson
Afsus-nadomat singgan ko'z yosh to'kadi.
Kishilarning sarasin kasbi-to'g'rilik.
Ka'ba choyshabidan o'z to'nin tikadi.*

* * *

*Kuvnoqlig jilva qilar ajinlarida,
Hech kimga qo'rs gapirmas, tersdir g'azabga.
Kim shirinso'z, beozor bo'lib qaridi,
Tangri Taolo uni solmas azobga.*

* * *

*Alamli natijasi bor kayf-safoning,
Kelar ingragan sasi kibru havoning.
O'ynab-kulmoq payti bor, ammo yarashar
Mehnatdan so'ng rohati kuyning, navoning.*

* * *

*Behuda so'z yashirin ayblarni ochar,
Adovatni qo'zg'otar, do'st nari qochar.
So'z-fazilat dalili, aql ko'zgusi,
Qisqa va ma'noli so'z dilga nur sochar.*

* * *

*Yolg'onchiga qo'l berib, beburd nom olmang,
Maqtanchoqqa yo'l berib uyalib qolmang.
Laqmaga ko'ngil berib, chohga yiqilib,
Insoniylik nomidan bo'yalib qolmang.*

* * *

*Menga sitam qilganni kechirib yashay,
Yomonligin dilimdan o'chirib yashay.
Yomonlab yurishlikdan tiyib o'zimni,
Yaxshilik qilib mehrim ichirib yashay.*

* * *

*Meva tugar daraxtlar past bo'lmasin,
Balog'a balogardon, dast bo'lmasin.
Har baloning toshidan ozor chekib,
Oqibatda qilmishi qasd bo'lmasin.*

* * *

*Hamma bilan bo'l yaxshi muomilada,
Qo'pollik yo'q ziyoli taomilida.
Odam Ato ham Momo Havoimiz bir,
Birisi padar bo'lsa, biri volida.*

* * *

*Qanday bino hech qachon vayron bo'lmaydi,
Uni ko'rganlar ko'nib, hayron bo'lmaydi?
-Adolat binosi u, himmat makoni,
Ayting, qay qush bu bog'da sayron bo'lmaydi?*

* * *

*Men to'g'riman deb qasam ichmoqlikdan qoch,
Taxtu amal deb do'stdan kechmoqlikdan qoch.
Yo'rg'alama martabang pesh qilib to'rqa,
O'zingga o'zingcha to'n bichmoqlikdan qoch.*

* * *

*Bir-ikkita nayrangboz, ham laganbardor
So'z olib, so'z berishib nahot paydo deng?
Tagiga suv quyilmish, rizqi qiyilmish,
Demak sho'rlik mansabdor endi ado deng?*

* * *

*Kamtarinlik xislatin chin sifat bilib,
Mansabga emas, mehr qo'ying mehnatga.
Yo'qolgan mansabingiz musibat bo'lib,
Yo'qsa bir kun yetaklar sizni uzlatga.*

* * *

*Najot sarmoyasidir hushxulq, hushfe'llik,
Hech kim dilin og'ritmay qilarlar ellik.
Har damini ziynatlab hulqda, hayotda,
Ko'rmaslar o't-ofat yo baloi sellik.*

* * *

*Hayotda kim ta'magir, xor-zorlik ko'rdi,
Illat boshi ta'nadir, ozorlik ko'rdi.
Do'stlikning indallosi hamdu sanodir,
Kim achchiq so'z, ginador, bezorlik ko'rdi.*

* * *

*Men yaxshidan yomonni, dushman dan do'stni
Ajratolmay o'tyapman, qon qilib o'zni.
Bir kuni shu qon bilan yuvintiraman,
Menga atalgan tig'ni, qadal gan ko'zni.*

* * *

*O'tda yonmas, suvdan cho'kmas, metinsan,
Tishing o'tkir, o'yvolishda betin san.
Soyasi yo'q, g'oyasi yo'q, "Yetimsan"
Shu sababdan oldda emas, ketinsan.*

* * *

*Mol-u dunyosi ko'p-u, hunari yo'qni,
Ilm-u urfoni bisyor, unari yo'qni,
Men hosilsiz daraxtga o'xshataman, u
Biror xaloskori yo'q, duchori o'qning.*

* * *

*Bo'lar bo'lmas talashib, kin saqlama,
Yo'q pichoqqa ziynatli qin saqlama.
Bu o'tkinchi dunyo g'illi-g'ashlidir,
G'amni abad, hazilni chin saqlama.*

* * *

*Shirin bo'lma judayam, yeb qo'ymasinlar.
Bir keldiyu bir ketdi, deb kuymasinlar.
Achchiq bo'lsang judayam, tuflab yuborib,
Bechora ko'p yosh ketdi, deb suymasinlar.*

* * *

*Yaxshilikni ulug' ish deb bilsang, shodman.
Baland himmatli bo'lsang, hasratga yotman.
Yolg'onchi yo chaqimchi, ig'vogarlarga
Dast bo'lsang hasta dilman, fig'onu dodman.*

* * *

*Siz hayronsiz menga buncha e'tiborli deb.
E'tibor-u hurmatimdan kiborli bo'lib.
Bilsangizmi, yuragingiz yorilar edi
Kelib-kelib o'xshaganim - senga yormi, deb.*

* * *

*Har teshikka qo'l suqma, ilon, chayon bor,
Ko'z og'risa betiyiq shu qo'l ziyonkor.
Bemazadir kasalga asal ham, bilsang,
Yengilish yengil ish, gar darding qilsang or.*
* * *

*Ezma bilan esh bo'lma sen ezilishib,
Fursating oz, boz turar ish tizilishib.
Kim ko'p so'zlar, umrni qisqartmoq ko'zlar,
Ketmish so'ng charchab, tolib ham uzilishib.*
* * *

*Aqling dalili-fikr, fikring-sukutdir,
Sabru toqating shukr, shukring sukutdir.
Ustomonlik qilsa kim so'zamol bo'lib,
Sukuting bilan maqtan, bu ham o'gitdir.*
* * *

*Nafsingni tiy, sen ortiq yekishdan saqlan.
Foydasi yo'q so'zlarni deyishdan saqlan.
Vujuding va uy-joying ozoda bo'lsin.
Birovlarning libosin kiyishdan saqlan.*
* * *

*O'ng'aysiz holda qolsang, o'yla, izla, top,
Sabru bardosh bilan sen ilgarila, chop.
Tuning kunga qorishib, tonging yorishib,
Albat aziz boshingda charaqlar oftob.*

* * *

*Yuragim erta-kech tepadi yurt,-deb,
Yaxshisin olqishla, kamini yut,- deb.
Shohmisan, gadomi, o'z yurtingdasan,
Lalaymay boshingni sen baland tut,- deb.*
* * *

*Kim qadr-qimmatini yaxshi bilibdi,
Jamoada o'rniga ega bo'libdi.
Kim o'zgaga o'z mehrin nisor qilibdi,
Mehru ishq qo'rg'oniga beka bo'libdi.*
* * *

*Sen bergan gullar, cho'g'lab ko'ngillar,
Derazam oldida xandon kuldilar.
Kun o'tib ular, seningsiz kular
Kun kerakmas deb, asta so'ldilar.*
* * *

*Kimki to'g'ri ishlari aro bekindi,
Va betayin, bema'no so'zdan chekindi,
Omonatga xiyonat qilmadi, illo
Unga izzat taxtiga, dedik, chiq, endi.*
* * *

*Baxtim topay deb, intilmoq kerak,
Baxtga yetib ham, tinchima, yurak.
Baxtning qoshiga o'zing kulib bor.
Baxtni qarshilash baxtday bo'lib bor.*

SOVCHILAR

*Eshikdan ikki xotin
Nogahon kirib keldi.
Qaynona bilan kelin
Har yon yugurib yeldi.
O'sma qo'yib o'tirgan
Qiz esa qochib ketdi.
Bular kim?-deb o'tirsam,
Qiz sirni ochib ketdi...
* * **

*Masxaralab kulma dugonam,
Qo'shiq aytsam, g'azallar bitsam.
Yonib-yonib maftunligimdan
Tunlar bedor oh-nola etsam.
Masxaralab kulma dugonam,
Yosh tanlamas axir muhabbat.
Bugunmi yo ertaga sen ham
Ahvolimga tushasan albat!
* * **

*Taqdim etding "O'tgan kunlar"
kitobini,
O'rgan deding ishq - muhabbat
itobini.
Buni o'qib o'rganganman men sevishni.
Bilmayapman lek Zaynabdek
sevilishni...*

* * *

*Mahliyosan olam husniga,
Do'stim, buncha sevding bahorni?
-Bilsang, shunday bahor kunida
Qalb tanidi parivash yorni.
Ko'zlarimni yoqmoqdadir, yor,
Qarashida hamon o't bilan.
Yuragimda oqmoqdadir yor,
Indamasdan jim, sukut bilan.*

* * *

*Bir-birimiz bilan do'stlashib,
Inoq bo'lsak ishqqa yo'ydilar.
Nomimizni yozib yonma-yon,
Bir-birovga atab qo'ydilar.
Ko'nikishni o'rgatdi ular,
Bora-bora ko'nikdik bunga.
Endi esa bizni kattalar,
Ajratmoqchi, ne dedik bunga?*

* * *

*Agar unga yo'q bo'lsa hushing,
Yoqtirmasang suhbatlarini,
Kulgulari keltirsa g'ashing,
Ko'rolmasang ulfatlarini,
Undan doston so'ylab har kimga,
Yurguningcha chertib turli soz,
Ne gaping bor, aytib o'ziga,
Oshkora yuz o'girganing soz.*



* * *

*Qaysi ishga sen qachon
kirishmoqchisan,
Jonona naqd, chekmay jon,
erishmoqchisan,
Bilgilki, bu ishingning
lazzati yo'qdir,
Shunchaki sen hayotda
tirishmoqchisan.*

* * *

*Mag'rur bo'lma molinga,
dunyongda qolar,
Ochiq yuz bo'l, badfe'llar
ziyonda qolar.
Tinglasang yo'q sifating
aytib maqtashsa,
Shu on bor sifating ham
tamom yo'qolar.*

* * *

*Quvonchingdan quvilgan kun
unut bo'ldim,
Ko'zingdag'i yog'dularda
bulut bo'ldim.
Yomg'ir bo'lib yog'moq uchun
to'yinmoq shart,
Lekin bundan ma'ni topmay,
sukut bo'ldim.*

* * *

*Mol-dunyo orttirishga
mayling bo'lsin sust,
Bundan kim oriqlar, kim
semirar durust.*

*Xiyonatga moyildir
jam'i dunyodor,
Shundan ichi tutundir,
garchand butun ust.*

* * *

*Sen gapirib birovning
bitta aybini,
Behisht qilib berding so'ng
unga g'aybini.*

*Mening ming bir aybimni
kimga so'ylaysan?-
Deb sendan nari ketdim,
topib paytini.*

* * *

*Omi er jabduqsiz ot,
deding, xo'p dedim,
Ilmiga amal qilmas
olim ko'p dedim.
Idroksiz qalb-tuzsiz osh,
emasman tashna,
Aqlsiz bosh suvi yo'q
chashma, deb edim...*

* * *

Rashkchimishman, rashk nima?

-Muhabbat guli.

*Gulga o'xshab tovlanuvchan
muhabbat quli.*

*Rashk qilarman, rashk qilarman
raqiblarimdan.*

Ular go'zal...

Hamma go'zal ta'qiblarimda!

* * *

*Vaqti borlar-naqdi borlar
havasimdadir.*

*Vaqtni cho'zmoq ahdi har bir
nafasimdadir.*

*Menda vaqtdan boshqa hamma
narsa yetarli.*

*Senda vaqtdan boshqa narsa
yo'kdir aytarli...*

* * *

*Kiygan to'ning bir kuni
albat eskirar.*

*Qildek teshikdan ham yel
nahot tez kirar?*

*Gar to'ningni muhtojga bersang:
"-Es kirar,*

*Yangi turganin ko'rib",
derlar, eskilar.*

* * *

*Ijodkorning chekiga ko'proq
iztirob tushgay.
O'zgadan ranj, ilhom "yuqtirib",
ijodi jo'shgay.
To'ldirishar ko'ngil bo'shlig'in
qo'shiq, she'rige.
Ijodkorlar voqifdir dillar
siru sehriga.*

* * *

*Nogahon bir laqqa cho'g'
kuydirdi meni.
Shu bir parcha cho'g' ochiq
kuydirdi meni.
Boladek cho'qqa kuyding,
deyapsizmi? -Yo'q,
Bir nayrangboz, munofiq
kuydirdi meni.*

* * *

*Beruvchi qo'l qil, Alloh,
berib shodlanay,
Rizqu nasibam halol
terib shodlanay.
Do'st-u dushmanimga ham
yaxshilik qilib,
Do'stni do'st, dushmanni
do'st ko'rib shodlanay.*

* * *

*Dushman bilan saflashsang,
qochar do'stlarining,
Tezda ayon bo'lar so'ng
kam-u ko'stlarining.
Oqibatin o'ylab gar
boshlasang ishni,
Qalbing ochiqdir, garchand
yumuq ko'zlarining.*

* * *

*Do'st do'stiga do'st, yovi
bo'lsa qoch nari,
Mehr arqoqlarin esh,
dardin soch nari.
Qani, qayda bunday do'st,
bormikan kam-ko'st?
Boqmas tik, qaddi egik,
"Do'st"imning bari.*

* * *

*Tavakkal qil Allohga,
panohga olgay,
Mol-jonim o'zingga de,
omonat qolgay.
Senga ayon sirim ham,
sirtim ham deb ayt,
Alloh o'zi asragay,
ko'nglimga solgay.*

* * *

*U bilmaydi hali so'zlashni,
Odamlarni olmagan tanib.
Qorni ochsa bilar yig'lashni,
Qorni to'ysa qo'yar jilmayib.
Oq yo'rgaklab, oq tilak bilan,
Qarashadi erinmay unga.
Yetishsinlar bir kuni u ham
Yaxshilikni qaytarar kunga.*

* * *

*Sen menga qayg'urmading,
Yig'lamading yig'lasam.
Oh ursam oh urmading,
Sen yo'q bo'lding yo'qlasam.
Yo'li ham ko'ngli tugal
Bir zot yo'g'i sezilib,
O'zim o'zimga bu gal,
Yig'ladim bir ezilib...*

* * *

*Sen bilanki, dugonam,
Kelisholmayman ba'zan.
Garchand sen doim hamdam,
Hamsuhbatim emassan.
O'yga tolaman shunda,
Dil g'uluvi aralash.
Naqadar mushkul ish-a,
Umr yo'ldoshin tanlash.*

* * *

*Yurt va ona so'zining
lug'aviy ma'nosi teng.
Sevib asl farzandin
ardoqlashga bag'ri keng.
Orzum, chiqmay so'zidan,
onam poyin o'paman,
Bir umr o'z yurtinga
xizmat qilib o'taman.*
* * *

*Ko'zimni yumdim, unga
Joylab butun olamni.
Oq, qizil, yashil-rangin
Quvonch, tashvish, alamni.
O'zida bor ixtiyor
Zamon edi bu damlar.
Chin yurakdan baxtiyor
Yashar edi odamlar...
* * **

*Daraxt tik o'saverdi,
Qayrilmadi yellarga,
O'saverdi chalg'imay
Yoqimli shivirlarga.
Keyin-chi, qilib jabr,
Kesib po'stin shildilar.
To'g'ri ekan baribir,
Uyga ustun qildilar.*

* * *

*Oshiqib kelayapsan,
Ochilib kulayapsan.
Olamimga obodlik,
Omonlik tilayapsan.
Umr charxi yugurar,
Kim yashashga ulgurar?
-Orzulanib shodlangan,
Ezgulikka otlangan!*

* * *

*Yalinmaydi senga u,
Tilanmaydi sadaqa,
Ko'rmas ekan nega u
Do'st-dushmanni sendaqa?
Chunki bilar yangi kun,
Yaxshi kunga basma-bas.
Yaralangan yurakning
Chandig'in tikib bo'lmas...*

* * *

*Nimadir qurban qilib,
Nimagadir yetganlar.
So'ng o'zлari qoqilib,
Qurbanlikka ketganlar-
Alloh, seni tanishdi,
Qayg'u-g'ami ortganda.
Tan olib, "tanilish"di,
Gunoh jabrin tortganda.*

* * *

*Ba'zilar bor xoli hislardan,
Chin sevgini bilmaydi ular.
Yashar nari bo'lib ko'zlardan,
Beun yig'lar, berkinib kular.
Undaylarga yondoshmay aslo,
Undaylarni demayman odam.
Sevgimga el desin tasanno,
G'ayratimdan yosharsin olam.*

* * *

*Agar inson ko'ngliga olsa
Nelar kechmish umrida borin:
Xotirasi mustahkam qolsa,
Qamal qilsa bariga bag'rin,
Eh-he, nelar bo'lmasdi unda:
Tog'day qomat, qalb koinotday
Kam tuyulib bu dahri dunda,
Yashardi o'z o'ziga yotday...*

* * *

*Osmondan bir cho'g' yulduz uchdi,
Uchib mening qo'limga tushdi.
Bu yulduzning oldida barcha,
Hatto oy-yu kun parcha-parcha.
Yulduz bo'lib yashay boshladim,
Yulduz bilan tenglashdi yoshim.
Endi aytib olqish, arzimni,
Undan qanday uzay qarzimni?*

* * *

*Sen aytgandek, aytmayin ko'nglim,
Olaqolay, mayliga gulin.
Shundayin ham ravon-ku yo'lim,
Tutmasam-da ul titroq qo'lin.
Yuraversin, mayli zavq bilan,
Xayolida uchib ham quchib.
Yuragim yo'q ko'rmoqqa, yig'lab
Turganini rang-quti o'chib...*

* * *

*Chaqchaqlashsang sevgingdan tonib,
O'zga dildor qizlar bilan sen,
Qaramayman panadan yonib,
Rashk, alamkor hislar bilan men.
Senga oshkor boqarman kulib,
Na sayyod, na bo'lgancha sayding.
O'kinardim bevafosan deb,
O'zim vafo qilganimdaydim.*

* * *

*Tug'ilgan kuningiz bilamiz,
Bo'lamiz fayz ziyod huzurda.
Yoshingiz sarhisob qilamiz,
Sarhisob qilmoqlik qizir-da,
- Tug'ilgan kuningiz bor, deymiz,
Tug'ilgan yilingiz esa yo'q.
Siz bilan biz baxtiyor, deymiz,
Baxtiyor, boshqasi esda yo'q!*

* * *

*Bayramlarda yo'q bo'lib qolay,
Topolmasin qutlovchi do'stlar.
Lovullagan cho'g' bo'lib qolay,
Talpinmasin quvonchli ko'zlar.
Bor-yo'qlikdan bo'lib bexabar,
Otilayin otqin suv kabi.
Siz kelmaysiz, kelmaysiz, axir,
Qutlolmaydi hech kim siz siz kabi!..*

* * *

*Oppoq tong, ko'zlarimga quyul,
Uniqqan yuzlarimga quyul.
Dunyoning u burchidan kirib,
Bundan chiqqan izimdan yurib,
G'am yiqqan bo'zlarimga quyul,
Sog'inchli so'zlarimga quyul.
Yo'qotib ket qora ranglarni,
Men tun bo'yi qarg'aganlarni.*

* * *

*O'rik gulli pushtirang ko'ylak,
Ko'zlarimdan chaqnab ketdi o't.
O, hech mahal, hech narsa yurak,
Bo'lmas ekan abadiy unut.
O'rik gulli pushtirang ko'ylak,
Hamon fikrim tortar serjodu,
Ammo uning soxibin suymak...
Tilim kuygan, puflab ichgum suv!*

* * *

*Men o'yindan chiqdim, orqadan
Otilgan o'q so'zlar, xayr endi.
Yaxshi kim-u yomon farqidan
Ayri bo'lgan ko'zlar, xayr endi!
Tushayapman sahnadan garang,
Turfa odamlar orasiga.
Odamlarni saralab arang,
Malham bo'lay deb yarasiga.*

* * *

*Oxir nuqta qo'ydi sevgiga,
Basdir, shuncha yonib-kuygani.
Kimga rost deb, yolg'on deb kimga,
Shu sevgisin dilda tuygani.
Lovullamas ortiqcha yurak,
Cho'g'limasdир ko'zlari shundan.
Ham kichrayib boryapti, beshak
Sen kichrayib ketganing kundan.*

* * *

*Sen kulishni unutding-ku, lek
Yig'lashni ham eplay olmaysan.
Dengizdagi daydi kemadek,
Xayolingni to'play olmaysan.
Bilmam, qayga ketayotibsang,
Ko'zlariningda na quvonch, na dard.
Bevafolik jabrin tortib sen,
Sen shunaqa loqaydsan, loqayd.*

* * *

*Quyosh kulib va uyalib,
O'rkachsimon tog' ortidan,
Qoldi ranglarga bo'yalib,
O'tolmay yerning oldidan.
Ufqda sochi chulg'andi,
Yondirdi ham yondi asta.
Tandirdek qizib cho'g'landi,
Sho'ng'ib ketdi so'ngra pastga...*

* * *

*Tun kunduzdan boshlanar,
Yangi kunga salom deng.
Kunduz tundan boshlanar,
Qarang, qancha tun-kun teng.
Olisdan izlamay baxt,
Ayting, baxt yonimda-ku.
Yo'qotib qo'ymay deng, vaqt,
Vaqt - yon-atrofimda-ku!*

* * *

*Men sevaman bahorni,
Yilning qishin, kuzin ham.
Tunni, kunni, nahorni,
Issiq, otash yozin ham.
Chunki har qachon, har dam,
Dilni baxt, tole bezar.
Sababi, bo'lib hamdam,
O'lkamda tinchlik kezar.*

* * *

*Yuragimga o't ketdi,
Alanga ichra bag'ir,
O't ketgach, yonar ho'l-u
Quruq aralash axir!
Yuragimga o't ketdi,
O'tga talpinmoq kerak.
Ishqilib o'z-o'zidan
O'chib qolmasin yurak.*

* * *

*Yurak qonni tovondan
Miyaga haydab turar.
Yaylov yayratgan cho'pon
Kabi hay-haylab turar.
Ochilib tursa osmon,
Yashamoq bo'lar oson.
Yurak - yugurik hayot,
Unga mehrdir najot.*

* * *

*Xayollarim ketar uchib,
Kechalari ko'chalarga.
Suvin qo'yib, donin sochib,
Qaradimmi jo'jalarga?
Mitti jonlar g'amini yeb,
Bedor bo'lgum qilib orzu:
Olam aro, odam aro
Buzilmasin tosh-tarozu.*

* * *

*O'y-xayoli hayoting dovi,
Yuragi sen toshbag'ir ovi.
Singan yurak, tingan tilakning
Axir bordir bir kun so'rovi?!
Unga juda, judayam og'ir,
Oshiq yurak shikasta oxir.
Yuragiga bog'liq har oni,
Qachongacha jon-joni og'rir?..*

* * *

*Yana sog'ina boshladim seni,
Yana sig'ina boshladim senga.
Muruvvatli mujdalar mening
Xayotimga qilishar ega.
Meni ovutmanglar, rejali,
Aql-xushli odamlar bu kech.
Haqqim bormi mujdalar bilan,
O'zim uchun yashamoqqa hech?
* * **

*"Qora qiz" der meni ba'zilar,
Ranjimasman bu nomdan zinhor.
Qimirlamas shamol bo'lmasa
Daraxt uchi ham axir bekor.
Meni ardoqlagan, to'ydirgan,
Kiydirgan shu qoramtil tuproq.
Ammo uning hosili paxta
Qalbim kabi beg'ubor, oppoq.*

* * *

*Havasim kelar ba'zan
Shu ingichka bo'ynimga:
O'ldirib chindan sazam,
To'n bichajak bo'yimga,
Kenglig-u torliklarni
Sig'dirgan qaysar boshni
Bitta o'zi ko'tarib
Yurgani uchun rosti.*

* * *

*Xo'rsinadi olmalar tunda,
Yashirinib barglar qatiga.
O'rtamizda bu dahri dunda
Bitta devor turar atigi.
Orzu bo'lib biri-biriga,
Yashamoqlik yaxshi qanchalik!
Muhlat berib boqing erirga,
Quyosh qorga qaraganchalik.*

* * *

*Buvim deydi, yomon xosiyat,
Qichqirishi tunda xo'rozning.
Bo'lмаган gap, deyman, sof niyat
Bilan kutib o'sha ovozni.
Xo'roz qutlar bizni subhidam,
Tong jarchisi deyishar uni.
Bildirmasmi, bo'ling deb bardam,
Bizga tilab xayrli tunni?*

* * *

*Rad etilgan sevging hurmati,
Menga kulib boqmagan edi.
Bu bosh ne-ne kunni ko'rmadi,
Sokin kunim yoqmagin endi.
Kulgularing go'zal, beg'ubor,
Samimiylam bo'lishi mumkin.
Tinch daryoga talpinib bag'ir,
Uchib ketdi to'lqinma-to'lqin.*

* * *

*Men senga ishondim juda ham,
Shodlandim behad, g'am chekdim ko'p.
Ayrildim sarishta to'dadan,
Qalbimga daraxt deb, ekdim cho'p.
Qo'rqaman, ko'zimga kirib u,
Bir kuni ko'r, basir qilsa-ya?
Shu olov jussamdek kichik u,
Sevgimni shu cho'p ham bilsa-ya?..*

* * *

*Visol-visol emas, tark etib,
Dilni aldoq ko'chaga eltsa.
So'ngiga ming la'natlar bitib,
Afsusida qovurib ketsa.
Uzun tunda yolg'izlik dahshat,
Dahshat-o'ttiz yoshda yolg'izlik.
Yaxshiyam bor yozg'irishligu,
O'zdan hafa yurib chalg'ishlik...*

* * *

*Meni, seni quchgan baxtli dam,
Ko'zlardagi nur qaytarilmas.
Yurakdagi xis-hayajon ham,
Lovullagan qo'r qaytarilmas.
Qaytarilmas daqiqalarning
Qaytishini istayman juda.
Bir-biriga rozini qalblar,
Aytishini istayman juda.*

* * *

*Shoshqin suv yo shamol, kezasan,
Yuragingning manzili-o'zga.
Dunyolarni kezib, sezasan,
Hayotingning mazmuni-o'zga.
Dil xovuchda qotgan, tutqun til,
Quchog'ingga olasan o'tdek.
Yoring malaksiymo, malakfe'l,
Bir kam dunyo shu lahza butdek!*

* * *

*AQL bilan KUCH-baxti insonning,
Tuganmas g'azna, naqdi insonning.
Bu dunyosida topgan dunyosi,
Shohona ko'shki, taxti insonning.
Umr yo'llarida yolg'izlanib lek,
O'lmasin aslo shahdi insonning.
Hamrohi bo'lsin, xayrihoh bo'lsin,
Ezgu niyati, ahdi insonning.*

SURAT QARSHISIDA

*Ko'rganlarim emasmi aldoq,
Hayratlanib lol bo'lib qoldim.
Potrab chiqqan lolaqizg'aldoq
Epkinida dol bo'lib qoldim.
O'tkir ekan egangiz ko'zi,
Ta'sir kuchi tasvirdan kammas.
O'zingizni yaratib o'zi,
Sevib qolgan bo'lsa, ajabmas!
* * **

*Yarim baxtdir, yarim davlatdir,
O'zi bilan tanishsa odam.
Yoqsa yoqa, yengdir-savlatdir,
Boshiga ishq-ish tushsa odam.
Ichkarida odamzod ruhi,
Men u yoqqa qilyapman safar.
Meni yetaklayotgan tuyg'u
Aql bilan birlashsa-zafar!
* * **

*Kulib boqsang,
Mening ko'nglim yorishar.
Barq urgan bahorimga yozim qorishar.
Men uchib yurarman, uchib yurarman.
Yeru ko'k-olamni quchib yurarman.
Ruhimning parvozi uchun kulib boq.
Samimiyliging kuchin bilib boq!*

* * *

*Bir ovoza tarqaldi:
Maysa bayroq olib chiqdi!
Nozikkina navnihol
Qatqaloqdan g'olib chiqdi.
Erta-indin gullaydi,
Shonalaydi-gul tutar.
Demak, katta maqsadni
Yelkasida olib chiqdi.*

* * *

*Tangri meni jazoladi,
Ko'z yoshimga cho'miltirib.
Vujudimni tozaladi,
Xotirotg'a ko'miltirib.
Hozir mendan holing nechun
Deya so'rmanq, deb ne derkin.
Imkon bering, o'zim uchun,
Yashashga loaqal bir kun.*

* * *

*Yordan xabar ayt, deb saboga,
Yotar edim boqib samoga.
Uchdi ko'kning bitta yulduzi,
Ne sababdan uchdi, ajabo?
Siyohi yo'q, siymosiz shamol,
Kuta-kuta yorini halol,
Izlab ketdimikan o'zi yo?
Sadoqatin aylab to'tiyo?*

* * *

*Yaqinlashib do'sting yoviga,
Sherik bo'lib yurma oviga.
Maydalashib, maydalanib, so'ng
Qurban bo'lma mayda doviga.
Do'stlaringni ko'paytir, illo,
Do'st bo'l o'zing fiysabilillo.
Shunda do'stlar qurshovida shod,
Tinch yashaysan, Alhamdilillo.*

* * *

*Cho'ntagi bo'sh edi, tinch yashar edi,
Xotiri xush edi, havotir-etim.
Kuzi kuz, qishi qish, yozi yoz edi,
Xasham yo'q, osham yo'q, bepardoz edi.
Oz edi orzumand kunin royishi,
Soz edi orzumand kunin boyishi.
Boyidi, boyligi xavoga yetdi,
So'ng o'zi pufakdek yorilib ketdi.*

* * *

*Seni sevgan edi, hech kimga
Nasib etmas ehtiros bilan.
Sen-chi, qarshi olisan nega
Hadik bilan, e'tiroz bilan?
Sevaverdi u uzoq, begard,
Tap tortmas bir xudbinlik bilan.
So'ngra ko'mib tashladi bedard,
Oddiygina bir jimlik bilan.*

* * *

*Sening qarashlarling mehrli,
Mehring bulog'iga sho'ng'iyman.
Vujudimni chippa quchoqlab
Olgan hayot, bo'l menga deyman.
Mehring meni opichlab olar,
Mehring meni ko'tarar boshda.
Qiziq, shuncha sehru mehrni
Qozonmoq bor ekan shu yoshda...*

* * *

*Umr ma'nosida torayib,
Fikr ma'nosida kengayib,
Borayotgan menmi qorayib,
Shamollarda munkib, enkayib?
O'zing kechir, past-baland tushib,
Yozgan har harf, har imlom uchun.
Ba'zan shund-a-ay ketaman jo'shib,
Kechir, ko'r va kar ilhom kuchin.*

* * *

*Buncha maydalashib ketyapsan deng,
Almisoqdagi qozonni so'rab?
Yer bilan yakson, tuproq bilan teng
Kattakon o'choq ketgan-ku nurab.
Qizg'onishmi yo mas'ullik bilib,
Har kun so'rading boshlab janglarni.
Maydalab yubording egalik qilib,
Berishga ko'zi qiymaganlarni.*

* * *

*Uyqu bosar qorong'u kecha
Bo'lsa-da men o'tirmoqchiman.
Dil quvonchi-she'rim tonggacha
Kiprik yummay bitirmoqchiman.
Xonamni ham qamragan tunni
Chiroq yoqib o'chirmoqchiman.
Bosib turgan qorong'u kunni
Oppoq tongga ko'chirmoqchiman.*
* * *

*Yaxshi she'r lar yozayapman deb,
G'ururlanib yashamay aslo.
Hozir uni bezayapman, - deb,
O'z-o'zimga aytmay tasanno.
Aslida she'r nimadir o'zi,
Yoniq dilning tarjimonimi?
O'qib, uqib, gohida to'qib,
Tizayapman so'z marjonini.*
* * *

*She'r kechasi bo'ldi bu kecha,
She'r bilan dardlashdim bugun.
Mizg'ib ham olganim yo'q picha,
Ilhom keldi uyqudan ustun.
Mayli shunday tunlarim o'tsin,
Mayli bedor qarshilay tongni.
Mayli uyqu meni tark etsin,
Ilhom tark etmasa bo'lgani.*

* * *

*Sen ishon, sen ishon, olam qo'limda.
Ichu tash, o'ngu so'l yurar yo'limda.
Men juda baxtliman, juda baxtliman.
Sen bilan hur hayot, taxtli, ahdliman.
Qo'ling ber, qo'ling ber, qo'llar tutashdi.
Endi biz daryomiz, ko'llar tutashdi.
Endi biz daraxtmiz, butab, atashdi.
Demaylik: Karaxtmiz, taqdir adashdi...*

* * *

*To'lqinlar olishdi qoyalar bilan,
Qoyalar noiloj nurab bordilar.
Shu'lalar kurashdi soyalar bilan,
Soyalar "soya"sin so'rab bordilar.
Qoyadan qum qoldi, quydilar shag'al,
Yuksaldi qoyalar kabi bir shahar.
Uylar ko'p, uylarning qaddi xo'p baland,
Shu'lalar kurashda soyalar bilan.*

* * *

*Faqat orzu bo'lib qolgan gulimsan,
Imkonimni anglagan cho'g' dilimsan.
Gul bo'yidan yemish yiqqan bolari
Gul-chechakdan yakkalanib qolarmi?
Oydek kulgan, soydek to'lgan yoshlikka
G'uluv solib o'rgatmanglar toshlikka.
Tosh yurakda orzular tosh bo'lmasin,
Murg'ak tanda sevgi odosh bo'lmasin.*

* * *

*Seni saqlayapman eng og'ir kunim,
Umrda eng oxir kunim uchun, do'st.
Hijron-u g'amlardan men sohir kunim,
Sening huzuringga talpindim beso'z.
Aslida nima ham deyishim mumkin,
Olam tinch, alam yo'q bo'lgandan keyin?
Sen bilan bir kunda boyishim mumkin,
Yoki bir gadodek qolishim tayin.*

* * *

*Qo'lingni qo'limda his etib do'stim,
Duch kelgan yo'llardan yurib bordim tik.
Bor edi hayotda o'z kamu ko'stim,
Bordim men bilmasdan bir lahza hadik.
Men uchun cho'zilgan g'ayratli qo'llar,
Buncha ham mehrli, buncha ham kuchli?
Hamisha qudratga, jur'atga yo'llar,
Odamzod mehrga shuncha ham o'chmi?!
* * **

*Sevgingni his qilgan sari shunchalik,
Qo'rqaman, o'zim ham sevib qolishdan.
Salomga olganim paytida alik,
Qo'rqaman shunday bosh egib qolishdan.
Aslida taqdirim yaratgan o'zim,
Sening ham taqdiring kundai ravshan.
Taqdir deb atalmish tahqirga to'zim
Bermasga shayliging ko'rib qo'rqaman.*

* * *

*Ko'nglim cho'kdi ko'z yoshimning ko'lida,
Mitti jonim ul bevafo qo'lida.
Niyatimga endi yetdim deganda,
Peshonada bori bo'lar ekan-da.
Ketolmaysan taqdiringning azmidan,
Xurkak kunlar, xorg'in tunlar jazmidan.
Havasmandmi, hasadmand mitti jonim,
O'zni buncha xoru zor etdi jonim?*

* * *

*Men sizni o'chirib tashladim hozir
Telefon daftardan bor harfi bilan.
Sizning-chi bilag'on davrangiz qizir
Yurakka sanchilar so'zlar shahrida.
Al'bomda suratlar pashsha, quvildi,
Saodat, sadoqat tushdi javondan.
Buning sababini ko'ringiz endi,
O'zim tan olganim Dilbar juvondan!*

* * *

*Ul yigitni Shahnoza, shaydo etdingmi?
Ishq otashin dilida paydo etdingmi?
Yo'qsa nechun oldingda terga botadi?
Balki uning qalbida mehring yotadi?
Ko'zlaringga qarolmay, yerga boqadi.
Barnoning bu turishi senga yoqadi.
Doim uni o'ylaysan, sen ham shaydomi?
Uni qo'msab bitganing she'rmi, navomi?*

* * *

*Ko'rib turib ko'rmagan bo'lsang,
Qovjirab qol qahratonlarda.
Nur emishman, nurlangan bo'lsang,
Mensiz qolgin saratonlarda!
Agar meni aldagan bo'lsang,
Aldan yana, aldangan bo'lsang!
Yana ne dey, aldangan bo'lsam...
Ko'zimga cho'p, qadalgan bo'lsang!..*

* * *

*Bu dunyo bir matodir,
Unda sarbon- XATOdir.
Halol, pok yashaganga
Xotirjamlik atodir.
Har kim qilgan xatosin
Yodda tutib yashasin.
Qilgan yaxshiliklarin
Lek unutib yashasin.*

* * *

*Kim mayda narsalarga
Qilmay yursa e'tibor,
Ishonib qarsaklarga,
Desa, taxt-u baxtim bor,
Tandan ketgach bir kun kuch,
Ayrilarkan shahdidan.
Katta xatolarga duch
Kelib ajrar naqdidan.*

* * *

*Yuz pokiza nomimni
Bir yuzi yo'q bulg'atdi.
Baham ko'rsam nonimni,
Mehrni muruvvatni-
Ul yuzi yo'q bir cho'qib,
Ko'zimni o'yib oldi.
Yuz pokiza yuzimning
Ko'zida kuyik qoldi...*

* * *

*Sizni sevib qolayapman,
Ham quvonch, ham rashk bilan.
Ba'zan oliv orzularu,
Ba'zan g'urbat, g'ash bilan.
Ko'zlarimni yoqmoqdasiz,
Ko'zingizda o't bilan.
Yuragimda oqmoqdasiz,
Siz hamon sukul bilan.*

* * *

*O'ylarini to'zitgan
O'yinlaring bas endi.
Muallaqdir cho'zilgan
Qo'llaring abas endi.
Endi butkul unutdi,
Sendek suluv suratni.
Gohida lol, qaydan, - deb,
Oldim buncha jur'atni?..*

YOSHLIGIM

*Hech nimam yo'q edi u paytlar,
Orzu-umidlarimdan bo'lak.
Faqat so'zim bor edi aytar,
Hamroh edi menga bir malak.
Meni katta manzillar sari
Boshladi u, orttirdi havas.
Uning uchun bir edi bari,
Men yonida nafas olsam bas.
Mana endi yetdim bariga,
Muhtoj bilmas kunlarga yetdim.
Malak esa mendan nariga
Hatto xayr demasdan ketdi.*
* * *

*Yoshlik, yoshlik, qanot ber menga,
Yulduzlarga uchib borayin.
Yoshlik, yoshlik, madad ber, menga,
Sahrolardan gullar terayin.
Men chorvador, menman paxtakor,
Oq oltinlar undiray cho'lda.
Mayli, ko'kda xayol sursin oy,
Men quyoshni qo'ndiray qo'lga.
Sochlaramni o'rib qirq kokil,
Gulbahorga o'ynab berayin.
Dilginamga ajib his hokim,
Sof ishqimdan so'ylab berayin...*

* * *

*Muhabbatsiz o'tma, yoshligim,
Shodliklarga g'arq bo'la qolgil.
Kulib kelsa qalam qoshligim,
Sen ham dildan kul, kula qolgil.
Insonlarni e'zozlagin, sev,
Insonlarga ishon, yoshligim.
Vatan, ota-onas, do'st-chun sen
Kerak bo'lsa ber jon, yoshligim.
Ezgulikning yo'l boshida bo'l,
Sof niyatli yurak - yurakdir.
Seni sevgan Vatan uchun, bil:
Faqat shunday yoshlik kerakdir!*
* * *

*Umidvor tikilmang ko'zimga,
Ketsam zor qaramang izimdan,
O'zingiz izlamang so'zimdan,
O'zga bir ishq yashar dilimda.
Bu qiz bir dunyo deb o'ylamang,
Sevgisi ro'yo deb o'ylamang,
Yuragi daryo deb o'ylamang,
O'zga bir ishq yashar dilimda.
Men sizga gulimni bermasman,
Muhabbat, yo'limni bermasman.
Tushuning, dilimni bermasman,
O'zga bir ishq yashar dilimda...*

* * *

*Go'zal go'zal emas, suygan go'zal.
Sevgisin yurakdan tuygan go'zal.
Muhabbat bog'ida yonib, yondirib,
Rashku firog'ida kuygan go'zal.
Yoriga dil izhor qilolmay yillab,
Armon tog'larini uygan go'zal.
Bir imkon axtarib ezgu ishq uchun,
Inon-ixtiyoridan to'ygan go'zal.
Ko'nglini zabit etgan mehr giyosin,
E'zozlab boshiga qo'ygan go'zal.
Dunyoga kelibsan, sen ham aytib ket,
"Go'zal go'zal emas, suygan go'zal!"*
* * *

*Go'zaldir suyganing rashku firog'i,
Chin mehr qo'yaning yaqin yirog'i.
Qahrimni so'ndirur mehru sadoqat,
Ham va'da qiladur mangu saodat.
Men sizni asrayman bag'rimda, go'zal,
Zo'r otash bor mehru qahrimda go'zal.
Kulgular bilan gul chehramga boqing,
Sevikli yor bo'lib mehrimda oqing.
Yoqing siz bir umr rashk olovida,
Sog'-omon chiqarman ishq qalovidan.
Men sizga jonimni tikkan odamman,
Bu jur'at merosdir menga otamdan...*

* * *

*Tikilib-tikilib qaraysan,
Xumor ko'zlarining qadaysan.
Parvomga olmasam, o'tinib,
O'kinib, o'kinib qaraysan.
Sevgingni sezdirsang, o'rgilay,
Sarxush bog' kezdiksang, o'rgilay!
Xayolim jilovlab, qalbimga
Ismingni yozdirsang, o'rgilay!
Sen meni avval xo'p o'ylatding,
So'ng qalbga ezgu his o'rnatding.
Sen-la kun farah, dil faxrli,
Sen menga sevishni o'rgatding.*
* * *

*Sening qo'pol so'zlarining kechirimli.
Yuragimga olmasman, o'chirimli.
Chunki yolg'ondan butkul yirog'imsan,
Menga kuylagan bulbul, chirog'imsan.
Hayotimning sarvari posbonim o'zing,
Bulut, chaqmoqdan nari osmonim o'zing.
Firoqingda fig'onda tutundirman,
Sening bilan yuragi butundirman.
Senga hamroh umrimdan roziman,
Sensiz o'zdan nariman, rosti man.
Chunki meni men qilgan o'zingdirsang,
Ham o'zingga teng qilgan o'zingdirsang.*

TUSHIMDA

*Tushimda tulporda ketayotibman,
Umrda ot mingan emasman asli.
Biram tik, biram shod ketayotibman,
Qarshimda yastanmish so'lim yoz fasli.
Nur o'ynar boshimda, qoshimda gullar,
Sochim ham qirq kokil emish, qiziq hol!
Bundan lol ham egik emish sunbullar,
Yigitlar turganmish adl, qiziqqon...
Yigitlar yigitmish, qaysar hamda mard,
Ehtiros tabiiy, e'zoz tabiiy.
Shu vajdan qizlar ham nozik va begard,
Shu vajdan nigohlar nurli, samimiy...
* * **

*Tushimda ham, o'ngimda ham cho'g' bo'lib,
Meni ta'qib etib yurar ko'zlarining.
Bu olamda alamlarim yo'q qilib,
Baxtim taqdim etib yurar ko'zlarining.
Ko'z oldimda sumbatningni rostlayman,
Sevinchlarim sig'may ketar ichimga.
Go'yo sovuq ayozimni yozlayman,
Yorim, seni alishmayman hech kimga!
Alishmayman, alishmayman, ko'zlarining,
Tushimda ham, o'ngimda ham meniki!
Alishmayman, alishmayman, so'zlarining
Tunda, tongda, peshinda ham meniki...*

* * *

*Tush bilan hush aro yongan paytmiding?
G'azalimdan tushib qolgan baytmiding?
Men sayyor, sen ag'yor uchun saydmiding?
Kim eding, jim eding, hamon aytmading...
Dengizlar qochmoqda ko'zim oldida,
Suylar tuz sochmoqda ko'zim oldida,
Men senga termulib ko'zim toldi-da,
So'radim bu qanday zamon, aytmading...
Aylanmagan bu boshim aylandi, lolman,
Yurakka cho'ng bardoshim joylandi, lolman.
Behalovat kunlarim hoyu havasin
Bayon qilmoqqa tilim shaylandi, lolman,
Bu lolu tangligimga tamom aylading!..*

* * *

*Tushimda bir pariruxsor qiz
Yechib oldi qulqoqdan sirg'am.
Sirg'a ham mayliku-ya, hur qiz
Olib qo'ydi uzugimni ham.
Yorim taqqan uzuk bu,-desam,
Kuldi taqib qo'llariga u.
Bergin desam, ich-etim yesam,
Ketaverdi yo'llariga u...
Rashkchi edim shundoq ham, tushim
Rashk o'tini yondirdi battar.
Ishomasim-ey ozod qushim,
Yuksaklashib ketding yuz qadar!*

* * *

*Ayol bir sevmasin, sevsan gar,
Ochiladi bilmasdan qishni.
Garchand ming bir tazyiq muqarrar,
Mayoq qilar mardlikda ishqni.
Hashar qilib, shahar qurbanlar,
Ish, ijod deb sahar turbanlar,
Yashab bitta tomning tagida
Bir-birovin ba'zan ko'rganlar,
Ayollarsiz o'tgan oningiz,
Behafsala, bejilva doim.
Mayli, siz voz kechib, toningiz,
Ayollar tonmasin, iloyim!*

* * *

*O'ylatar bizni, kuylatar bizni,
So'ylatar bizni, ayollar.
Yaralgan bizdan, qovirg'amizdan,
Saqlaymiz ko'zdan, ayollar.
Siz bizga hayot, qo'shiq, kuy, bayot,
Sinmasin qanot, ayollar.
Opam, singlimsiz, munis, munlimsiz,
Bola ko'nglimsiz, ayollar.
Onamsiz onam, munis, parvonam,
Yangroq taronam, ayollar.
Doim ahdida vafodorimsiz,
Izzat taxtida baxtiyorimsiz.*

* * *

*Bo'salar uchun yaratilgan ayol,
G'ussalar uchun yaratilgan ayol.
Bo'salar olavering lablaridan,
Ulardan uchgan sho'x - sha'n gaplaridan.
Oq g'ozning to'shidek oq bo'yni sizga,
Puch yong'oq to'lsa ham pok qo'yni sizga,
Parvozga shay ikki kabutar misol,
Sizgadir ko'ksi ham, qoshlari hilol.
Kimgadir muhabbat,
Oltin taxtdir ayol.
Kimgadir kishandir,
achchiq taqdir ayol.*
* * *

*Ayol qadrlanar elda
Fayz-baraka mujassam.
Totuvlik ustuvor dilda,
Mehr yashar muhtasham.
Ayol shunday xilqat erur,
Ezgulikdir tilagi.
Joniga jon nisor etur,
Bolasida yuragi.
Ayolga in'om etsangiz,
Sevgi, sevinch, shuhratni,
U avvalo tanlar shaksiz,
Tinchlik degan qudratni.*

ASSALOM!..

*Men bahor gulidek barq urgan uy bu,
Bol tutgan so'rilar, anvoyi gullar.
Buvimni yodlatar sada rayhonu,
Sayhonga yetaklab chiquvchi yo'llar.
Nok oqqan anhorning suvlari sayoz,
Sal cho'kib qolibdi qadrdon supa.
Oymoma, sirdoshim, go'zal, bepardoz,
Ayamay separating boshimdan upa.
Assalom, feruza osmonim mening,
Assalom, orzumand oftobim ko'pdan.
Assalom!.. Assalom!.. Yana ne deyin,
Turibman misoli tushgandek ko'kdan.*
* * *

*Darak bermay ketgan turnalar,
Qaytib keldi ona uyiga.
Kishanlarsiz qoldi turmalar,
Yer kengaydi eni, bo'yiga.
Qulf-kalit yo'qoldi birdan,
Erib ketdi temir tamg'alar.
Barcha yorliq borki kemirgan,
Erib oqdi hatto tangalar.
O'sha kuni ko'ngil mulkimni,
Yashirolmay qoldim kulgumni.
Kulgu biram yarashdi menga,
Bilmay qoldim tushdan o'ngimni.*

* * *

*Chust do'ppisi, Qo'qon do'ppisi,
Toshkent do'ppi, Andijon do'ppi.
O'zgachadir balki rang-tusi,
Unda g'urur, unda shon, do'ppi.
Quyoshning bir parchasi bo'lib,
Vatan zavqin dilga jo etar.
Momolarim merosi bilib,
Chevar qizlar bezab boyitar.
Sayr qilib uchar gilamda,
Ertaklarni tuydim do'ppimda.
Mendek baxtli kim bor olamda,
Oromu fayz kiydim, do'ppimda!
* * **

*Dimog'dor ul kimsalardan men
O'zni olib qochib boryapman.
Yetiltirib tuyg'ularimni,
Don misoli sochib boryapman.
Ildiz otib zamin qa'riga,
Men tobora botib boryapman.
Maysalarim to'q boshoq bo'lib,
Kunga quchoq ochib boryapman.
To'lib borar dil dard, quvonchga,
Donday qotar tashvishda bardosh.
Oshkor yig'lab, oshkor kulishga
Bo'la olar kim menga yo'ldosh?!*

* * *

*Sevgilim, yonog'ingdan,
Ol lola rang oldimi?
Sho'x kulgu, xandoningdan
Shalola tang qoldimi?
Dur tishlaring yashirgan,
Labmi, gul yaprog'imi?
Dil ummonin toshirgan,
Visoling firog'imi?
Qarshingda bulbul misol,
Parvonaman, gulmisan?
Chindan ham labzi halol,
Beg'ubor ko'ngulmisan?*

* * *

*Mandan maysa yaxshi, u
Betonni yorib chiqar.
Boychechak ham botir gul,
Muzmi qor, birdek yiqr.
Daraxt shoxini kessang,
O'ntasi shoxlayapti.
Nimaga mening ko'nglim,
Yuksalmay, chohlayapti?
Tanho o'zingsan-ku, yor,
Kayfiyatim dorisi.
Imkoniyatim cheklab,
Demagin-da: horisin!.*

* * *

*Tushunuksiz tushkun kayfiyat
O'ldiradi meni damodam.
Egiz burjda turlanar niyat,
So'ldiradi meni ming odam.
"Dod" devorgim keladi ba'zan,
Istihola bo'g'ar bo'g'zimni.
Kulib turib o'ladi sazam,
Yig'lamoqdan tiygum o'zimni.
Inja fe'ldan kenglik, torligim,
Bir o'zingga sig'dira olgan,
Deyman, yurak, yo'q yo borligim
Bu yog'iga bir senda qolgan.*

* * *

*Endi g'amning, hamdamining o'zga,
Uzoqlashib ketayapsan, do'st.
Bitib borar kam-kaming o'zga,
Orzularga yetayapsan, do'st.
Qo'l silkitib qolayapman jim,
Sho'x-sha'n tuyg'u, titroqlarimga.
Shudring ingan dol mujgonlarim,
Tarjimondir ingroqlarimga.
Hullas, seni boy berayapman,
O'zim to'zim tilab o'zimga.
Har kunimni oy bilayapman,
Oyim yildek tatir ko'zimga...*

* * *

*Manfaat ustun bo'lgan
Joyda hayot so'nadi.
Chunki mehr-oqibat,
Ishqli qanot sinadi.
Sinadimas, bunaqa
Joyda qanot bo'lganmas.
Odamlari yurakdan
Yig'lagan yo kulganmas.
Odamlari odammas,
Manfaat shotirlari.
Yov qochganda ko'paygan
Makonning botirlari.*

* * *

*Bulbullar daraxtda,
Sunbullar suvda.
Biz anhor bo'yida,
Suyganim quv-da!
Anhorning shovqini
Yashirar ohin.
U oyna suvlarga
Qadar nigohin.
Kular ham, kuylar ham,
Nigohi suvda.
Suv-aksim o'g'risi,
Suyganim quv-da!*

* * *

*Meni qo'ygil o'z holima,
Men senga iltijo qildim.
Kuygan dilim zor o'rtanib,
Senga ishqiy nido qildim.
Falakda o'rtanib ruhim,
Tanim andin judo qildim.
Va lek sendan javob yo'qdir,
Nechun unda sado qildim?
Firoqning mulkida shosha,
Visoli dil gado qildim.
Na qildim, bilmadim, ey do'st,
Ishqni o'zda ato qildim...*

* * *

*Pishiqchilik fasli kuz,
Yor-yorning avji baland.
Ota uydan ko'ngling uz,
Degan kuy mavji baland.
Kuz shamoli yelajak
Hovlimni uvishtirar.
Xomush uyim kelajak
Holimni surishtirar.
Huvillagan uyimga
Boqib dili roz keldi.
Xayr desam, "Xa-y-r" deb,
Ho'rsingan ovoz keldi...*

* * *

*Sezmaysan, deb ko'nglimni,
Ta'na qilasan menga.
Dilda pinhon sevgimni
Ochiq aytaymi senga?
Sevaman deb aytishning
Axir o'zi bo'larmi?
Qiz qilmagan bu ishni
Qilsam ko'ngling to'larmi?..
Qalb siringni anglarman,
Seni kuzatib zimdan.
So'ng kutganing aytarman,
O'tsang imtihonimdan!*

* * *

*Yomg'ir yog'ib, quyosh balqar,
Bo'ri bolalagan kunda,
Qarsak chalib, barglar alqar,
Qashqir oralagan tunda,
Qo'y-qo'zilar ma'rab yotar
Posangisi teng yurtda,
Har dovonda qator otar,
Fe'li, bag'ri keng yurtda,
Sheri ham, quyoni ham
Ulg'ayyapti havasda.
O'ligi, tirigi ham
Hal uning bir nafasda...*

* * *

*Tani sog'lik, omonlik,
Dili soflik, raxonlik,
Allohdan deb bilganlar
Ko'rmagaylar yomonlik.
Yomon nazar qilmaslar,
Kasdu hasad bilmashlar,
O'tkinchi bu dunyoda
Yurak-bag'rin tilmashlar.
Panoh tilab sabrdan,
Mo'minlarga jabrdan,
Ogox bo'lib yasharlar
Ikki gazli qabrdan.*

* * *

*O'lim yiroq firoqdir,
So'nib tindi chaqining.
Vujudingda titroqdir,
Yo'qdir endi yaqining.
Bu afsungar dunyodan,
Mo'"jiza kutar bo'lding.
To'y, tantana ro'shnodan
Xilvatga o'tar bo'lding.
O'lim qattiq uyqudir,
Uyg'onadi o'lganing.
Beadad dard, qayg'udir,
Paymonasi to'lganing.*

* * *

-Yuragingga ishonma,
Ishonmagin tuyg'ungga.
Tushing yo'lidan ozdirsa,
La'natlar ayt uyqungga.
Aqlingga ham ishonma,
Ishonmagin fahmingga.
E'tibor bisyor, ammo
E'tirozlar - tahminga.
Sen o'zingga, men g'olib
Bo'lib yashay o'zimga.
Yana ne ketdi qolib?
-Kiraverma so'zimga...

* * *

Hayot - toshqin suv,
Suzolmasang cho'kasan.
Ba'zan yetdim deganda,
Icholmasdan to'kasan.
Har bir narsa taqdirdan
Demoqlik insofdanmas.
Sen suzishni bilmasang,
Ichishni bilmasang, bas,
Bas, ko'ngil qancha dardlik,
Shuncha yig'loqi tikan.
Hayot kechirmoq - mardlik,
Yashash - jasorat ekan.

* * *

*Yurtimda to'rt fasl bor,
Yozu kuz, qish va bahor.
Undan mehmon arimas,
Kecha - kunduz, shom, nahor.
Taomlari mazali,
Noni sutli, jizzali,
Yo'qotganin yo'qlaydi,
Odatlari azaliy.
Yurtimni xurram ko'ray,
Yuksalsin, ko'r kam ko'ray.
Yurtdoshimning boshidan
Zar sochib, qorin kuray.*

* * *

*Yomonlikni ko'rganda
Bola bo'lgim keladi.
Bola yig'lasa yig'lab,
Kulsa kulgim keladi.
Yaxshilik ko'rganda ham
Shunday xayol suraman.
Soxtalikmas, ularda
Soddalikni ko'raman.
Oq-qorani bolalar
Oson hal qilishadi.
Shu sabab ham hur bo'lib
Yashashni bilishadi.*

* * *

*Yo'llarimda chirog'im,
Yaqin qilar yirog'im,
Ketding yumib ko'zingni,
Mendan burib yuzingni.
Mag'rur qaddim egildi,
Yurakka g'am ekildi.
Yig'ladim jim, beovoz,
Eshik-romlar berkildi.
Borim to'kib yashovdim,
Baxtda bo'kib yashovdim...
Hayot hayotmi endi,
G'am-g'ussali qurshovdin?!*
* * *

*Hech gap emas bir kunda
Soch oqarib ketishi.
Dunyo bo'lib tor kulba,
Jon halqumga yetishi.
Gurkiragan bahor ham
Hazonlashi, so'lishi.
Ko'tarinki alyor ham
Hazinlashi, so'nishi.
Tunda oy shu'lalari
Xatto qolmog'i o'chib.
Quruq tuhmatning shunday
Tubanlikdadir kuchi!*

* * *

*Sendan so'z olmoq bo'ldim,
So'zlatmadim, so'zladim.
O'zi kular ko'zlariningi
Tinglab ko'zim uzmadim.
So'zlayverdim, so'zlayverdim,
Yolg'on-yashiq, hud-behud.
Seni burdli deb ko'rdim,
So'ngra ortidan beburd.
Asli kim kimni bunday
Atashga haqli, ayon.
Asli tinglatib qo'yib,
Seni etdim namoyon!*

* * *

*Indamasdan dilimdag'i
Tilsimlarni sezasiz.
Indamasdan har galdag'i
Talmovsirash... Ezasiz!
Eza-eza uzum edim,
Shinni qilib qo'ydingiz.
Shinni emas, balki derdim:
Jinni qilib qo'ydingiz.
Yo'q, jinnilar sonida yo'q,
Kishansiz bir telbaman.
Tutuni yo'q, yallig'i yo'q,
O'zi yonar kulbaman.*

* * *

*Sen haqingda kuylamasman hech,
O'zimniki endi dala-tuz.
Sen haqingda o'ylaganim puch,
Qishgacha men bilan bo'lar kuz.
Kuz-quyoshda qovjiragan yoz,
Kuz-shamolda to'zg'igan bahor.
Kuzga hamroh bo'lib endi soz
O'tar umrim demog'im mahol.
Qutularman rashking-ta'qibdan,
Firog'ingda kuymasman, biroq
Ko'z ko'radi uzoq-yaqindan,
Sen haqingda eshitar quloq...*

* * *

*Qo'ng'ir sochli, qo'ng'ir ko'zlining
Visolida yonardim pinhon.
Endi esa yurak bo'zlaydi,
Xayolidan tonar dil pinhon.
Pinhon yonib, yoshim to'kaman,
Umidini yo'qotgan ko'zman.
Ko'z yoshimda o'zim cho'kaman,
Oy-yulduzin uxlatgan tunman.
Pinhon edi kuzatishlarim,
Pinhon edi sevgim ham, biroq
Pinhon bo'lmay muhabbat raddi,
Pinhon soldi dilimga titroq...*

* * *

*Sen sevgidan ayri bo'l,
Izzatni bilma.
Gar yig'lamok ersang, kul,
Lazzatni bilma.
Bilmagin bu dunyoga
Nega kelganing.
Tuzatmoq yo buzmoqqa
Ega kelganing.
Butun umr o'tib ket,
So'qqa bosh bo'lib.
Yer yesin, sen yerga yet,
Yo'qqa bosh bo'lib!*

* * *

*Sendan ko'nglim qoldi,
Qasosga shaylandim.
Azobimdan ishqisi
G'azabga aylandim.
Bizlar yelkadosh, cho'ng
Qoyaydik naqadar.
Bu dilda dard, o'kinch,
Soyamiz darbadar...
Ko'ngil billur shisha,
Shisha sindi endi.
Siniq ko'ngil bilan
Nima qildik endi?*

* * *

*Sendeklarni ko'rgandim,
Aldovga to'la ko'zni.
Kulsang kulib turgandim,
Ovutmoq bo'lib o'zni.
Nimadandir zerikib,
Kimmnidir kutar edim.
Tuyg'ularim tirik deb,
Qayg'uni yutar edim.
Keyin o'zimga kelib
Hammaidan voz kechdim.
Hammani baxtli kilib,
O'zim baxtga kechikdim.*

* * *

*O'zimni oyga soldim,
Ko'zimni soyga soldim,
Osmonga bulut chiqdi.
Ustuvor sukut chiqdi.
Oy mo'lтирab, soy mildирab,
Shumshayib qoldi kecha.
Oh! dedim, ohlar dedim,
Qо'yniga oldi kecha.
Ohimdan olam yorishdi,
Tunim tongga qorishdi.
O'yin bo'ldi bu kecha,
Qiyin bo'ldi bu kecha...*

* * *

*Rozi bo'lsang sinab beraman,
Ul qora ko'z, barno yigitni.
Qalbini bir tirkab ko'raman,
Eshitmasdan o'zga o'gitni.
Darchasidan irg'itaman gul,
Qarab turgin bo'lib ehtiyot.
Agar sevsə seni chindan ul,
Gul-lolamni qaytaradi bot.
Yo'qsa, asta boshin chiqarib,
Nedir deydi, bo'lasan voqif.
Sehrim bormish, senga ishqilib,
Bo'lib qolmay bir umr raqib.*

* * *

*Kechir meni, kechir dugonam,
Vafo qilmay qildim begonam.
Etolmay sof sevgimni taqdim,
Yuragimda bor chandiq taxtim.
Sirlasharding dardingni aytib,
Dil-dilimdan men-chi zil ketib,
So'zlariningni tinglar edim jim,
Ikki o'tda yondirib ichim.
O'zi ochgach menga yuragin,
Bilmay qoldim qayon yurmagim.
Ko'zlariga berolmasdan dosh,
E gib qo'ydim ishq oldida bosh.*

* * *

*Ochig'ini aytay, dunyoda
Sizdan boshqa yaqin kishim yo'q.
Orzu-havaslarim ziyoda,
Sizsiz shodon kun, kechmishim yo'q.
Xazon uchgan bog'larga boqib
Quvnab o'ynab, kuylasam, netay?
Chaqmoq chaqsa osmonni yoqib,
Men zavqlanib bo'ylasam, netay?
Vaslingizga chiqaman chopib,
Gaplarimning bo'lmas adosi,
Baxt qoshiga o'zim yo'l topib,
Taxtingizning bo'ldim gadosi...
* * **

*Sevishganlar uchrashdi nogoh,
Buncha visol zavq-shavqi yaxshi.
Hayajonli damlarga ogoh
Olov yuzda muhabbat naqshi.
Termuladi mehribon, kulib,
Bir-birovga behad mushtoq ko'z.
Biri bulbul, biri gul bo'lib,
Go'yo kuylar demay biror so'z.
Mastu hayron olam bu kuydan,
Gulistondir sahro ham, cho'l ham.
Yaralgandir odam shu kuydan,
Shu kuya, dil, bir umr chulg'an!*

* * *

*Qayda bulut, qaydadir
Quyosh balqib turibdi.
Dunyo mayda-maydadir,
Go'yo qalqib turibdi.
Dunyo emas, dunyoda
Yashayotgan xalq mayda.
Shoh bo'laman dunyoga
Deganlar bor har qayda.
Bo'lingan bu dunyoni
Yana bo'lmoq bo'larlar.
Ortib g'urbat, ziyoni,
Maydalanib o'larlar.*

* * *

*Bugun qarib qolganim,
So'nib qolganim sezdim.
Titrab, junjikib tanim,
O'zim o'zimdan bezdim.
Chaqnoq, chaqmoq ko'zlarim
Ostida parda paydo.
So'nik tovush, so'zlarim
Mazmuni mayda-mayda.
Aslida shu maydalik
Qariganim nishoni.
Kim qarisa ma'noli,
Maydalanmas, ishoning.*

* * *

*Seni juda ko'rgim keldi, sog'indim,
Surating-siyrating yoyib yig'indim.
E'tibor qilmasdan tanish, birovga,
"Yetarmi, yetmasmi?" degan so'rovga.
Chog'lanib qoldim so'ng birdan safarga,
Manzili noma'lum, ma'lum shaharga.
Men shitob otidan tushmadim, kezdim,
Bitta haqiqatni yurakdan sezdim:
Biz haqda kim nima derkin?- deganlar,
Noma'lum ketganlar erkin ekanlar.
Ortda qolganlardek yurmaslar nolib,
Shu vajdan qarimas, va shundan g'olib.*
* * *

*Men seni osmonga olib chiqaman,
G'urbatu kulfatdan g'olib chiqaman.
Bulutlar ustida quvnab yurasan,
Yulduzlar ostida kulib turasan.
Oymomoga qarab oylashasan sen,
Yulduzlar bilan bas boylashasan sen.
Go'zallik sendami, yo yulduz, oyda,
Titraysan mohitob titragan joyda.
Menga qo'lingni ber, men bilan bo'lgin,
O'zingga, so'zingga teng bilan bo'lgin.
Sen - O'sha, men- O'sha, muhabbat yangi,
Yangrar jo'sha-jo'sha baxtning jarangi.*

* * *

*Men ko'p o'tar bo'lib qoldim shu ko'chadan,
Yor visolin tilab oydin tun-kechadan.
Meni yo'qlab yurgan senmi, bahorim, deb,
So'rsa bir bor, ming bahordan men kechaman.
Bu kunimdan aslida ko'p azoblandim,
Undan forig' bo'lolmay xo'p g'azablandim.
Bu azob, bu g'azablardan halos et deb,
Arosatda qolganlar aro saflandim.
Uni sevmoq asli andishasiz o'lmoq,
Pichoqsiz so'yilmoq, kafansiz ko'milmoq.
Titrab-qaqshab so'rар bo'ldim kun-kechadan:
Quvib soling o'tar bo'lsam shu ko'chadan!*
* * *

*Har kuni o'taman shu toshloq yo'ldan,
Bahorda gulasta tutgan daraxtlar
Bargini to'kib tek turgan karaxtlar,
Vaqt o'tib baxtini bergandek qo'ldan,
Kuzatar qushlarning ketishin asta.
Yo'l esa, shu bitta yo'l hamon bitta.
Qarigan ildizlar qa'ridan pastda
Bo'y cho'zar nihollar yana son mingta.
Yo'l esa, shu bitta yo'l hamon bitta,
Meningdek tanhodir, qaytarilmaydi.
Cho'zilib yotadi yozu qish payti,
Meningdek ba'zida ketmaydi daydib...*

SEN KETSANG

*Sen ketsang hech nima o'zgarmas,
Ko'nglimni yoritar siyoqing.
Sochlaring bu paytdek to'zganmas,
U paytdek yo'q zarra gunohing.
Xayollab hayratdan tolgancha,
Ko'nglimda tiklayman o'zingni.
Hayallab sen badar qolgancha,
So'zimga yuklayman so'zingni.
Sen ketsang hech nima yo'qotmam,
Tongim otar tunimni yiqib.
Sen ketsang o'zingga sho'r endi,
Xonamdan chiqaman tor, biqiq.*
* * *

*Ketaman hafaqon, xasta jon bo'lib,
So'zlaring yurakka sanchilib qolar.
Qolasan qilt etmay qasdi jon bo'lib,
Vujudim yurakka yanchilib borar.
Ilohiy kuchmisan, chorlayverasan,
Turli yo'l topaman yana qaytmoqqa.
G'ururim qiymalab, porlayverasan,
Chog'lanib boraman nedir aytmoqqa.
Ammo til lol, aql tangdir shunchalar,
Sen meni nimaga qiynayverasan?
Sir bo'lib turganda bor tushunchalar,
Sen nega yurakni o'ynayverasan?!*

* * *

*Ketaver, ketaver, qarama,
Ko'zingga uzrlar cho'ktirib.
Ketaver, ketaver, bag'rimga
Ko'zimdan yoshlarim to'ktirib.
Ketaver, ketaver, ertaga
Olmalar pishadi suzilib.
Ketaver, ketaver, ortingdan
Tushmaydi osmonim uzilib.
Ketaver, men baxtli bo'laman,
Quyoshim boqmoqda qizarib.
Ertaga kun bo'lib kulaman,
Quyoshim botmoqda qizarib...
* * **

*Kelib ketaver, mayli,
Kelmas bo'lib ketmagil.
Kelmas bo'lib ketsang gar,
Manzilingga yetmagil.
Ko'rini tur, ko'rini,
Qo'r ulashib tur menga.
Ruh tetik, mag'rurim,
Ruh ulashib tur menga.
Sendan sira kechmayman,
Kechsang kecha bil mendek.
Kechib ketsang, kechib chin,
Hayot kechirgil mendek.*

* * *

*Sen bilasan azob berishni,
Yoshim to'ktirishga qodirsan.
Qanday bo'lsang, shunday yashaysan,
Ko'nglim cho'ktirishga qodirsan.
Ket,- desam sen ketasan sira
Qaytmaydigan bir sur'at bilan.
Meni qiynash uchun dunyoga
Kelganmisan zo'r jur'at bilan?
Bu jur'atda mehr ham bisyor,
Uni nozik ilg'ab olmoq shart.
Seni faqat kechirib yashab,
O'zimdan ham kechib bormoq shart.*
* * *

*Ko'zlariningdan ayon muhabbat,
Yashirmoqdan aytgin, ne maqsad?
Bir toza qalb yonar, o'rtanar,
Sening ishqing, o'yingda faqat.
Peshvoz chiqqin, vaslingga mushtoq,
Pinhon tutmay qalbingni anglat.
Bulbul misol jo'shib, baxtiyor,
Sevgi, vafo sozin jaranglat.
Bir jilva, bir jilmayish bilan,
Olamini aylagin jannat.
Yetar shuncha nozing, Umida,
Oshiq dilga aylagil shafqat.*

* * *

*Jonim, sizga qiziqib qoldim,
Vaslingizdan isinib qoldim.
Ortingizdan so'rab, so'roqlab,
Oldingizda qisinib qoldim.
Qadamingiz qutlug' bunchalik,
Qaddingizga qulluq shunchalik.
Ishq bog'iga yetaklaguvchi
Hayajonlar to'liq kunchalik.
Muhabbatning bo'yidan mastman,
Oh-fig'onli kuyidan mastman.
O'qtin-o'qtin xumor aylagan,
Visolingiz o'yidan mastman...
* * **

*Yaxshi ko'rishimni yashirib,
Yashamoq bas, dardim oshirib.
Yashayman tik, bilmasdan hadik,
G'iybatlarga o'zni topshirib.
Kim sevgisin yurakdan tuygan,
O'sha baxtli, o'shadir suygan.
Yeldek kelib, seldek ket degan
Duolardan mitti jon to'ygan.
Umr qisqa, qisqadir yo'lim,
Yolg'onga yon bergen dam - o'lim.
Haqqim tilab, bo'lsam haq talab,
Ravon bo'lar, ranj bilmas yo'lim.*

* * *

*Senga noma bitib charchadim,
Demak seni sog'inmay qo'ydim.
Demak, seni sevmay, barchadan
Qizg'anmay ham sig'inmay qo'ydim.
Orzulagan kunga yetishdim,
Qushdek ozod, pardek yengilman.
Sertug'yonli kun-la aytishdim,
Osoyishta kunga singilman.
Kunim qo'nim topdi, rejali
Kelajagim, maqsadlarim shay.
Kunim kundek, kecham kechali,
Ayting, endi ne dey, ne qilay?*
* * *

*Meni avf eting va menga
Bunday xumor ko'z-la tikilmang.
Quvnoq so'zlar aytsangiz, kulsam,
Qizning ko'ngli bor deya bilmang.
Meni afv eting va aslo
Qizil gullar, lolalar tutmang.
Vaqtinuzni o'tkazib bekor,
Yo'llarimda betoqat kutmang.
Meni avf eting va sira
O'ylamang yo'q deya sevgani.
Uyalaman axir har kimga
Sevganim bor mening, degani.*

* * *

*Sen bir so'zga ilhaq yashaysan,
Sen sir so'zga ilhaq yashaysan.
O'sha so'zni aytmasam bo'lmas,
Bu borada sen haq yashaysan.
Dilim tilga ko'chsa, qandoq kun,
Tilim dilga uchsa qandoq kun?
So'zga aylanar dil qani hey,
Dilimga "til" tushsa, qandoq kun?!.
Muhabbatim xijron, qiynoqli,
Sovumajak, mangu qaynoqli.
Sen bir so'zga ilhaq yashaysan,
Bu ham bir baxt menga ne chog'lik.*

* * *

*Baxt izlading, tez chopib bording,
Izlaganing tez topib bording.
Bilib-bilmay, kerak-nokerak
Izlar aro iz topib bording.
Bilmadingki, bu izlaringdan
Yurgan o'zga, yugurgan o'zga.
Sen-chi yoniq, cho'g' ko'zlariningdan
O't tashiding ko'ringan ko'zga.
Endi o'sha otashdan "Boyib",
Ba'zan esa muzlikka toyib,
Yurganlardan pana joy izlab,
Tashqarida qolding izillab...*

* * *

Bunchalar ham barno bo'ylar bu!
-Menikimi, yoki sizniki?
Ko'zlarimi bu, chaqmoqmi, jodu?
-Bilmam, qaysi baxtli qizniki?
Qora sochlar, qaldirg'och qoshlar...
-Shunday qoshni sevaman juda.
Yurakni rom etgan qarashlar,
-Xayolimni band etgan shu-da!
Shirin so'zlar chinmikan, yana...
-Yana nima, jim qoldingiz, jim?!
Qalbingga kim hokim ekan-a?
-Shuni sizdan so'ramoqchiydim...
* * *

Bir narsani aniq aytaman,
Hohi kelib, hohi ketar payt,
Hayotimdan roziman, rozi,
Menga bo'ldi bahori, yozi.
Sevdim hamda sevildim yonib,
Yashadim goh o'zimdan tonib,
Mening kabi suymagan hech kim,
Rashku g'amin tuymagan hech kim.
Quvonmagan talpinib mendek,
Quvonchini sham etib mendek.
Hayotidan rozi to'lishgan,
Hamrohiga baxtin bo'lishgan...

* * *

*Avval seni sezmayin tayin,
Boshga g'urur tojin kiyibman.
Uzoqlashib ketganing sayin,
Qaysar dilim bilan suyubman.
Yuz tutibman yolg'onga, ey, dil,
Bedil o'zni aldab yashabman.
Kelmas yorning poyiga ming yil,
Qaytmas bahorlarim to'shabman.
Ne bo'lsa ham o'zimdan bo'ldi,
Yolg'on aytgan so'zimdan bo'ldi.
Endi o'sha yolg'onlarim deb,
Dard dunyoim bo'g'zimda to'ldi.*

* * *

*Men o'zimga so'z berdim, endi
Sendan nari bo'lib boraman.
Dilda yongan nag'malar tindi,
Mayli, g'arib bo'lib boraman.
Men o'zimni olarman qo'lga,
Hislarimni jilovlab oldim.
Sen termulib qolarsan yo'lga,
Sabru bardosh cho'ng tilab oldim.
Xayolimda chek qo'yaman, chek,
Taqdir taqdim etgan hazilga.
Har kun xayol yetib borar lek,
Senga - qadam yetmas manzilga...*

RASHK

*Sen rashkimni qo'zg'atmoqni istaysan,
Va istaysan meni g'amda yoqishni,
So'ng panadan quvonch bilan boqishni,
Sen xayolim to'zg'itmoqni istaysan.
Davralarda meni raqsga chorlamay,
O'zgalar-la kulib, o'ynab ketasan.
Bag'rim tilib, meni qiynab ketasan,
Shu sabab ham tursam kerak porlamay.
Sen qo'ymaryan zimdan razm solishni,
Rad etilgan muhabbatning o'ylaysan.
Ko'zlarimda o'kinch ko'rib quvnaysan,
Sen bilasan boplab o'ching olishni!..*

* * *

*Ko'zimning oldida rostlab olganman,
Sening bo'y bastingni, chayir qaddingni.
Men seni o'zimga moslab olganman,
Baxtimga omuxta qilib baxtingni.
Bir kuni bu shu'la-shirin ashula,
Otashin hislarda kuyishim mumkin.
Bir kuni, bir kuni ko'zda yosh to'la,
Men seni yo'qotib qo'yishim mumkin.
Rashk aro, hajr aro, xavotir aro
Men seni qo'msayman yoningda turib.
Ko'zlarim goh shodon, goh motamsaro,
Qizg'onib yashayman yoningda yurib.*

* * *

*Tengdoshlar davrasida kulsam,
Ochilib so'ylasam, kuylasam,
Sho'xligim qo'ymasam, o'ynasam,
Nahotki men seni qiynasam?
Alam bilan qarab qo'yasan,
Ko'zingdan cho'g' tarab, kuyasan.
Jonginam, yoqadi qarashing,
Sevgingning dalili-shu rashking!
Rashking borki, demak sevging bor;
Rashking ba'zan ayirar hushdan.
Men-qiyashdan seni baxtiyor,
Sen-qizg'anib meni sevishdan.*

* * *

*"Rashkchi" deysan o'rtansam zimdan,
Zotan sevgi rashk ila egiz.
Ha, rashkim zo'r qalbimda chindan,
Lek sevgim ham rashkimday cheksiz.
Sevilganda baxtim topdim yor,
Va orttirdim talay raqiblar.
Alamzada nigohlar beor
Shuning uchun har dam ta'qiblar.
Garchand qalbing sof, ehtirosli,
Sevishingga aminman dildan.
Raqiblarim lek go'zal, rosti,
Qizg'anaman seni ulardan...*

* * *

*Bir hovuch bo'lib qolsang uning oldida,
Chaqmoq bo'lsang chaqinli kuning oldida.
Tuman bo'lsang tushovli tunning oldida,
Yana seni o'lay boshladim!
Kulib tursa beg'ubor uning kuzatib,
Osmonda tutib tursa qo'lin uzatib,
Yurib o'tsa past-baland yo'ling tuzatib,
Yana seni o'lay boshladim!
Yurakning ishi nima, qonni haydashmi?
Yurib, yugurib, urib, jonni haydashmi?
Qoning ham joning aro yursang adashib...
Yana seni o'lay boshladim!*

* * *

*Orzumand tuyg'uga to'liq qalbimni,
Tushovlab, tushovda qoldirgan eshik,
Ohimdan "Oh!" demay, tishlab labini,
Bir umr qurshovda qoldirgan eshik,
Nogahon ochilib ketdi ushbu kun,
Zumrad osmon uzra otildi mushak.
Nogahon xayoldan hayrat uchdi-ku,
Tuyib ham tuyolmay botiniy tushdek!
Orzumand tuyg'uni tuygan qalbimni,
Ohimni, qayg'umni qo'ygan qalbimni,
To'lishgan oy kabi nurlantir, quyosh,
To'lishmoq ishqida kuygan qalbimni.*

* * *

*Nima qilgan bo'lsam, chin dildan qilib,
Nima degan bo'lsam, dedim chin dildan.
Chinim yolg'on bo'lib, bugunga kelib,
Yuragim yozilmay qoldi chigildan.
Yagoning ko'zлari, so'zлari aro
Otello misoli o'ynab qolyapman.
Suhbatlar o'tdi tig' tortgancha, ammo
Suhbatlar bois, goh o'ylab qolyapman.
O'zimdan boshqaga ishonmay qo'ydim.
Yumdalar gohida bejavob savol:
-Ne uchun birovlar dardida kuydim,
Nimaga yashadim behad bezavol?*

* * *

*Seni ko'rmoq kerak ekan yaqindan,
Qarab turmoq kerak ekan yaqindan.
Ko'zлaringda hadik ila xob ekan,
Yuzlaringda ajin behisob ekan.
To'g'ri chiqdi raqiblarining tusmoli,
Ko'ngling xuddi is bosgan uy misoli.
Bor bilganing gina-yu gidir ekan,
Bor, aybingni o'zingdan qidir ekan.
Qaysi oshiq vafo qilgan va'daga,
Bu yaqinlik oxir tegar me'daga.
Yurak o'zi yurak ekan yaqindan,
Seni ko'rmoq kerak ekan yaqindan...*

* * *

*Quyosh yuzin to'sdi tumanlar,
Ko'ngil qurshovida gumanlar.
Sozimning torlari uzildi,
Men qo'shiq ham kuylamay qo'ydim,
Sovuq tunlar reja tuzildi,
Kunlar esa...eh, kimni suydim?
Eng chiroyli ko'yaklarimning
Ol rangini quyosh o'chirdi.
Orzu, armon, tilaklarimning
Barini yel ko'kka uchirdi,
Sen rashk qilmay qo'ygandan beri,
Sen qaramay qo'ygandan beri.*

* * *

*Osmondan bir cho'g' yulduz uchdi,
Uchib mening qo'limga tushdi.
Yulduzlarim yulduz emasdир,
Kunduzlarim kunduz emasdир.
Bu yulduzning oldida barcha,
Hatto oy-yu kun parcha-parcha...
Qo'limdagи yulduz shu'lasi,
Ko'nglimdagи kuy - ashulasi.
Mutlaq hokim bo'lib qolgan kun,
Bor-yo'g'imga yasaldi yakun.
Yulduz bo'lib yashay boshladim,
Yulduz bilan tenglashdi yoshim..*

* * *

*Menga ayon yaxshi ko'rishing,
Sevging sofdir lo'li Laykodek.
Biroq yoqmas xayol surishing,
Va boqishing oshiq haykaldek.
Mag'rurligim Raddadan ortiq,
Mag'rurligim yo'l bermaydimi?
Senga butun borlig'im tortiq,
Senga bo'lsin, senga, maylimi?
Gapirsang-chi bag'ringni ochib,
Gapirsang-chi, qiynamay o'zni.
O'shanda bir so'z desam, mayli,
Layko kabi bergil jazomni!..*

* * *

*Xatosini yashirib bir gal,
Yuragini hovuchlab yurdi.
Xatosini oshirib har gal,
Xato taxtin ustidan qurdi.
Hammaga u beradi salom,
Hamma unga kulib boqadi.
Hamma deydi: "U shirin kalom..."
Shunday, "shirin" bo'lib yoqadi.
Xavotiri-xatosin yodi
Yozda yoqqan yomg'irdek tindi.
Ammo uning butun hayoti
Xatolardan iborat edi!*

* * *

*Uyg'onmasman garchand batamom,
Fahmim xalos etar uyqudan.
Uyg'onishim aslida oq tong
Yuragimga solgan tuyg'udan.
Ko'r ekanman deyman naqadar,
Ko'rib turar ko'zlarim bilan.
Suymasam va tuymasam agar,
Nola, fig'on, bo'zlarim bilan.
Mahf etgandek tunni kun ming bor,
Ishontirar ertamga mehr.
Lekin yurak ko'rmoqligi bor,
Ko'z-tasdiqlar, qorachiq-muhr!*

* * *

*Bedorlikdan to'lg'onib tunda,
Tongda qotib uxlab qolaman.
Bir mo"jiza ro'y berar shunda,
Lolu hayron o'yga tolaman.
Ruhim tashlab ketar tanimni,
Boshlab borar keng samolarga.
Topshiraman do'stu g'animni.
Befarq kezgan gung sabolarga.
Uyg'onib vaqt otin chuxlayman,
Yuragimda umidvor hislar.
Uyg'onib ham shoshib uxlayman,
Uchrashamiz ertaga bizlar...*

* * *

*Tongim yorisharkan har sahar,
Qarshi olib uni har safar,
Hayotimga tilayman shodlik,
Fayz-baraka, hayru-obodlik.
Tinchlik tushmas osmondan oson,
Tinch-xotirjam yashasin inson.
Xotiri jam honadonlarning
Mo'risidan o'rلamasin mung.
Har tong yangi tug'ilgandekman,
Ertam uchun shayman, tetikman.
Salom, deyman yaxshi kun-yangi,
Ijobatdir niyatlar tonggi.*

* * *

*Subhidam yellari gullar bo'yini
Dimoqqa yoqimli taratib o'tdi.
Atrofga yoygancha qushlar kuyini,
Chamanda dilrabob yangratib o'tdi.
Hovuz labidagi ma'yus majnuntol
Sochlarin erkalab taroqlab o'tdi.
Barchada go'zallik qilay deb bisyor,
Kezib gulshan aro so'roqlab o'tdi.
Muhabbat vasfini ko'chirib tilga,
Muhabbat vaslida o'ylatib o'tdi.
Muhabbat faslini jo qilib dilga,
Muhabbat naslini so'ylatib o'tdi!*

* * *

*Men bilan yashajak insonni emas,
Mening siz yasholmas insonni kutdim.
Meni kuttirajak insonmas, mensiz,
Bir qadam tashlolmas insonni kutdim.
Menga tushuntirar insonni emas,
Meni tushunajak insonni kutdim.
Kimni unutishga gar qurbim yetmas,
O'shaning vasliga jon nisor etdim.
Yuraging kim bilan nafas olar deng,
Ko'zlarining izlaydi kimni deb so'rang.
Kutyapman, billuriy Laylivash dilga
Majnunning sevgisi bersin deb jarang.*
* * *

*Qo'lingni qo'limda his etib, do'stim,
Duch kelgan yo'llardan yurib bordim tik.
Bor edi hayotda o'z kamu ko'stim,
Ammo men bordim tik, bilmasdan hadik.
Men uchun cho'zilgan g'ayratli qo'llar,
Buncha ham mehrli, buncha ham kuchli?
Hamisha qudratga, jur'atga yo'llar...
Odamzod mehrga shuncha ham o'chmi?!
Qo'lingni qo'limda doim his etay,
Bag'rikeng ko'ngillar naslimiz asli.
Ko'ngil ko'chalarim senla bezatay,
Mehrdan yaralgan aslimiz, asli.*

* * *

"Sevmayman" deb qoldim baloga,
Qalbga buyruq beraymidi yo?
Va yo'liqdim tuxmat, ig'voga,
Qasddan yog'dirdi u bir dunyo.
Gap-so'zlardan chilparchin dilim,
Yuragimda g'azabli tug'yon.
Jahldanmi, gapdan lol tilim,
Qanday izhor etay, o'rtoqjon?
Yomon ekan, do'stlarining hatto
Ishonishsa yolg'on-yashiqqa.
Yomon ekan, do'stim, hayotda
Yo'liqmagin shunday "Oshiq"qa!
* * *

Sevasizmi?- deb takror-takror,
Savol bermoqlikni qo'y maysiz.
So'zim jamlab, aytsam ham ming bor,
Qosh uyasiz: -Meni suymaysiz!
Sir ochmoqqa yo'q burro tilim,
Chin oshiqlar odati shu-da.
Ko'zlarimda ko'rinar dilim,
Ko'zlarimga ko'rining kunda.
O'zingizni olib qochmasdan,
Ko'zlarimga boqib ko'ring, yor!
Men sevgimni so'zga sochmasdan,
Topshiraman sizga ixtiyor...



* * *

*Nafratlana boshladim sendan,
Kulgularing tahqir tuyuldi.
Yuragimni g'ashladim sendan,
Ko'zlarimga qahr quyuldi.
Bevosh suhbatdoshga aylanib,
Seni o'zga mayoq deganim,
Ne istasang shunga shaylanib,
Sayoq yurib tayoq yeganim,
Barin anglab, tutundir ichim.
Nafratimga tenglashdi sevgim.
Oh, o'zimda o'zimning o'chim,
Dod, xasratga ilashdi sevgim...*

* * *

*E'tiqodim etib salomat,
Men hamisha seni sevganman.
Tilaganman hamisha omad,
Men hamisha g'amming yeganman.
Sen baxtingdan iyib yuribsan,
Quyoshing bor, tobiningi bergen.
Zar choponlar kiyib yuribsan,
Ovingni ham, dovingni bergen.
Kundan-kunga nurlanmoqdasan,
Unutib o'z, so'zni, xotirni.
Oydek qarzga qo'rlnamoqdasan,
Nahot shunday hayot tatirli?..*



* * *

*Dengizdagi jami baliqlar,
Yigirma ming turfa qiliqlar,
O'zicha shoh, o'zicha quldir.
Quruqlikda yashar hayvonlar,
Qo'nog'i shoh, butoq, sayhonlar,
Yemishi o't, tikan yo guldir.
Baland ko'kda suzgan bulutlar,
Ba'zan shovqin, ba'zan sukutlar
Bir-birini yashar to'ldirib.
Lek barisi yurar g'o'rman deb,
Osmonga tosh otib, zo'rman deb.
Sen o'zingni qo'yma so'ldirib.*

* * *

*Shamol olib kelgan xas-xazon,
Uloqtirdi suvga ko'prikn.
Ikki qirg'oq nochor xafaqon,
Qabul etdi bu ko'rgilikni.
Ha, qirg'oqlar qabul etdilar,
Sen ham buni qabul etarsan.
Asta-asta ko'nis ketdilar,
Sen ham balki ko'nis ketarsan.
Chidolmasman men bunga aslo,
Va yurmasman manguga o'ksib.
Siniq ruhim, qayg'um-la hatto,
Quyoshni ham qo'yarman to'sib.*

* * *

*Navqiron yangi yil eshik qoqmoqda,
Qadahlar jarangi tinmaydi bu chog'.
Laylak qor raqs etib, o'ynab yog'moqda,
Hamma yoq: ko'chalar, yo'laklar oppoq.
Orziqib kutgandim bu yilni chunon,
Keng quchoq ochaman, baxtiyor ko'ngil.
Yurakda bir shirin titroq, hayajon,
Shod deyman: Assalom, senga oltin yil!
Chunki bu qutlug' yil menga serjilva
O'n sakkiz yoshimni olib kelmoqda..
Yo'limga poyondoz - oqlik to'shab va,
O'zi ham shundan yo'l solib kelmoqda.*

* * *

*Yangi yil, yaxshi yil, yaxshi-da juda!
Bahorim, nahorim shahdi avjida.
Ulg'aydim bir yoshga, jo'shdi g'ayratim.
Yayradim, bulbuldek jo'shdim, sayradim.
Yashnadim, chamanim gullagan palla.
Tilimdan tushmadi alyoru yalla.
Sevgimni yashirgan ko'ksim tog' bo'ldi.
Sehrini oshirgan tilsim bog' bo'ldi.
Bog'imni gullatar vafodorim bor.
Tayanchim, suyanchim, madadkorim bor.
Yangi yil, yaxshi yil, yaxshi-da juda!
Sadoqat to'lqini kelsin mavjida.*

* * *

*To'xtab qolgan edi mening soatim,
Yurak-qonlar aravasi me'yorda.
O'ylar edim, jahon qadim, yer qadim,
Yangilik bor nahot gulda va qorda?
Jim kuzatdim erishini oq qorning,
Vaqt-erigan qor, gulladi olucha.
Omonlik deb qarshi oldim bahorni,
Qo'shiqlarni tingladim o'z holicha.
Ammo, ammo birdan jala, sel quyib,
Tinchligimni ta'qib etdi chaqmoqlar.
Savr oyi samovotga o't qo'yib,
Taqdirimga taqib ketdi oh-vohlar.*

* * *

*Kalendarning varag'ini yirtaman,
Yirtaman hech qaytmaydigan kunlarni.
Ko'zlarimning qarog'ini yirtaman,
Va yirtaman ham jarang, ham munglarni.
Nega buncha chopar soat kapgiri?
-Seni tezroq yetkazgali manzilga!
Nega buncha shoshqin?- deyman hapriqib,
-Yashash tarzing balki shunga arzir-da!
Yo'q-yo'q deyman, poyonimga yetmasdan,
Aylanmasdan burun kunlar changiga,
Iskandardek qo'lim ochiq ketmasdan,
Otlanaman vaqt-la kurash jangiga.*

* * *

*Men sen bilan yo'l yurishga tayyorman,
Mayli bu yo'l juda ham og'ir bo'lsin.
Yo'l yursam ham mo'l yurishga tayyorman,
Mayli, yo'lda zamona oxir bo'lsin.
Mayli, bizga xo'mraysin dala-tuzlar.
Mayli, bizga gullar peshvoz chiqmasin.
Yo'limiz bog'lasin mayda gap-so'zlar,
Eshitmaylik mayli, qushlar nag'masin.
Parvo qilmay tutib sening qo'lingdan,
Men yurakdan quvnab kuylab yurgayman.
Ne qilsang qil sen ham mendek dilingdan,
Sevsang bas, deb seni o'ylab yurgayman.*

* * *

*Gar istasam, seni shaydo aylayman,
Yuragingda ishqim paydo aylayman.
Nozim bilan kirib nozik qalbingga,
Sezdirmayin laxcha olov joylayman.
Gar istasam, ko'ksingni tog' aylayman,
Yo ortib g'am, dilingni dog' aylayman.
Chamanimga chorlab chaqnab, yo so'lib,
Saharing shom, sahroying bog' aylayman
Gar istasam, qalbing pora aylayman,
Omadi yo'q bir bechora aylayman.
Chunki oqqa oq dil oshiq Umida,
Bevafoning yuzin qora aylayman.*

* * *

*Jonim, meni ko'tarib olging kelardi,
Oynadek oymomaga solging kelardi.
Boshing uzra tutib shod, xurram, xushbaxtim,
Men bilan butun umr qolging kelardi.
Seni o'ylab, ko'nglimga she'r quyuladi,
Muallaqman, keng samo yer tuyuladi.
Dunyoga kelib ketar inson shubhasiz,
Kelib ketishdek ammo bir seviladi.
Amin bo'ldim, yil o'tib, sen sevganimsan,
Til tutilib, dil yutib, sen sevganimsan.
Bir havodan biz nafas olib yasharmiz,
Sabolardan sir tutib, sen sevganimsan.*

* * *

*"Jonim" deding, joningdan ortiq so'z degil,
Yana qaytar, qaytalab qaytar, yuz degil.
Sevaman, deding yana, ishongim kelmas,
Ko'zlariningdan bo'sa ber, ko'zim o'z.- degil!
Sendan nondan azizroq, jondan azizroq,
O'zim bilmasman, sharaf-shondan azizroq,
Ajoyib so'z kutaman, ajoyibot kutaman,
Borliging bunda hamma ondan azizroq.
Jonim deding, joningdan ortiq so'z degil,
Men bilan-da oningdan ortiq so'z degil!
Ne desang degil shunday, chindan, yurakdan,
"Ko'zlariningdan bo'sa ber, ko'zim o'z..." degil.*

* * *

*Meni, seni quchgan baxtli dam,
Ko'zlardagi nur qaytarilmas.
Yuraklarga ko'chgan tug'yon ham,
So'zlardagi qo'r qaytarilmas.
Qaytarilmas daqiqalarning
Qaytishini istayman juda.
Bir-biriga rozin qalblarning
Aytishini istayman juda.
Istagimning ro'yobi uchun,
Qaytmas daqiqani qaytarmoq
Kabi yo'qqa ko'rsatmoq kuching,
Shart o'zingga o'zing tik bormoq...*

* * *

*Oh bilan olamdan o'tgan dilbarlar,
Begunoh dillardan so'ylar Tanovor.
Bahorda bemavrid uzilgan barglar,
Singan shox-butoqni kuylar Tanovar.
Xizrvash qo'shiqqa jo'r etgan kuychi,
Suv qilib oqizib yubording dilni.
Bir imdod bilan yer, osmon- qo'y-chi,
Sen halos etding bor g'ubordan dilni.
Goh qarib, goh g'arib tingladim seni,
Qo'yding momolarim yodimga solib.
Yurakdan bir siring angladim sening,
Baxtdan ham, taxtdan ham sen mangu g'olib!*

* * *

*Hey, siz buncha gap uqmas, befahm?
Bepisandsiz, bo'lsam-da berahm?
Quvib yuborolmayman urib ham,
Alp qomatga essiz bosh, turib xam.
Shuncha haqorat, tahqir yo kammi?
Keting, yo chaqiraymi akanni?
Hey siz buncha gap uqmas, sur yigit,
Shuncha jabrim ko'targan zo'r yigit!
O'rganib qoldim sizga, o'rganib,
Ko'zim yo'q edi dastlab ko'rgani.
Endi esa qarosi ko'zimning
O'zimning gap uqmasim, o'zimning!*
* * *

*Alloh meni o'ynatib qo'ydi,
Nihoyati besh, olti... o'n yil.
O'ylab ko'rsam men topganlarim,
Yo'qotganlarim ichra jo'n yil.
Menga ifor sepib, nur purkab,
Yurganlarim o'tdilar bir-bir.
Parga cho'kib, boshimni burkab,
Yashar joyim yutdilar bir-bir.
Endi o'lmoq kerakmi, eyvoh,
O'n, yigirma, o'ttizmi fursat?
Umidvorman o'zingdan, Allah,
Bu yog'iga o'zing yo'l ko'rsat.*

* * *

*Darak bermay ketgan turnalar
Qaytib keldi ona uyiga.
Kishanlarsiz qoldi turmalar,
Yer kengaydi eni- bo'yiga.
Qulf- kalit yo'qoldi birdan,
Erib ketdi temir tamg'alar.
Barcha yorliq borki kemirgan,
Erib oqdi xatto tamg'alar.
O'sha kuni ko'ngil mulkimni -
Yashirolmay qoldim kulgumni.
Kulgu biram yarashdi menga,
Bilmay qoldim tushdan o'ngimni.*

* * *

*Sokin dunyo, imi-jimida
Xomtok bo'lyapti bog'larda.
Sho'ralar ham g'o'ra ichida
Uzilishi bor bu choqlarda..
Yelkada yeng shalvirab borar,
Oppoq ko'ylak mung'aygan xunuk.
Alamzada yurak torayar,
Kuz-dunyomning darchasi so'nik.
Sokin dunyo, niqobingni yech,
Xar jon borki , oshiqar erkka!
Yolg'on va'da, nag'malardan kech,,
Ochiq ko'z ber, so'z ber yurakka!*

* * *

*Meni desang, seni deyman,
Hamisha g'amingni yeyman.
Dilingdagan tiling aytsa,
Men ham yor, chin so'zim deyman.
Aldaganga aldoqchiman,
Hayotingga men soqchiman.
Bu yolg'onchi dunyosida
Aldanmagan demoqchiman.
Tashriftingdan aylanayin,
Tashvishingga shaylanayin.
Shirin tilak, dil malagim,
Taqdiringga boylanayin.*

* * *

*Yomon bo'ldi, eslamay qo'ydim,
Zerikkanda izlamay qo'ydim.
Yomon bo'ldi, yuragim yonib,
Sevinchimni so'zlamay qo'ydim.
Asli behos so'z qotgan o'zim,
Va baxtingni uyg'otgan o'zim.
Endi baxtga ko'milibmishsan,
Asli baxtim yo'qotgan o'zim.
Aso bo'lib qotibsan endi,
Ko'prik bo'lib yotibsan endi,
Meni ko'rmay, mendan-da so'rmay,
Meni menga otibsan endi...*

* * *

*Hech gap emas bir kunda
Soch oqarib ketishi.
Dunyo bo'lib tor kulba,
Jon halqumga yetishi.
Gurkiragan bahor ham
Xazonlashi, so'lishi.
Ko'tarinki alyor ham
Xazinlashi, so'nishi.
Tunda oy shu'lalari
Xatto qolmog'i o'chib.
Quruq tuhmatning shunday
Tubanlikdadir kuchi!*

* * *

*Marjon kabi shoxlarda
Osilib turar olu.
Jilvalanib quyoshda
Havasim orttirar u.
Unga qarayman asta,
Chiroy qo'shadi boqqa.
O'xshab ketar bir jufti
Yorim taqqan boldoqqa.
Asli unga oshiqlik,
Havasmandlik - shungadir.
Boldoq sabab, yor ishqin
Bayon etgan kungadir...*

* * *

*Uymalanib uyim yonida,
Buncha mening ko'chamni kezding?
Qalbim salomlashing onida,
Yuragingning g'uluvin sezdi.
Lov qizargan yuzingga boqib,
Sirli jumboqqa to'ldi ko'ngil.
Cho'mdi qayiq qosching-la oqib,
Xayol daryosiga murg'ak dil.
Derazamning oldida har dam,
O'tishingni kuzataman jim.
O'ylanar o'yparast dilginam,
Tuyg'ularga asirdir qalbim.*

* * *

*Kel, ey dilbar, diling shod et,
Muhabbatli kuning yod et.
Xar kuningni g'animat et,
Sezdingmi havf-g'anim, band et,
Bandu banding dilin tutsin,
Na-da dili, tilin tutsin.
Peshonasi sho'r bo'lib qol,
Deganlarga zo'r bo'lib qol,
Davonlardan oshib o'tsang,
Demak, sendek baxtiyor yo'q.
Oshiqona yashab o'tsang,
Sendek chindan baxtiyor yo'q!..*

* * *

*Sevgisini ibo bilan,
Ayta olmay imo bilan,
Qiynaladi go'zal yor.
Boqishida mehr bilan,
Borlig'imga sehr bilan,
Joylanadi go'zal yor.
Yetib bo'lmas zo'r tilakka,
Xayoliy bir hur, malakka,
Aylanadi go'zal yor.
Nimalar bor dilida,
Bilolmay lol Umida,
O'ylanadi, go'zal yor.*
* * *

*Beayb kun, kechalardan
bezdirma,
Oxiri yo'q ko'chalarda
kezdirma.
Porlab tursam vasfing-la,
tiyib qo'yma.
Chorlab tursam bepichoq
so'yib qo'yma.
Mehrga zor niholdirman,
sindirma.
Aks holda beholdirman,
jimdirman...*

* * *

*Indamay ketasiz,
qanchalar og'ir!
Og'rir dilim.
Tosh solaman og'zimga,
Tosh qotsin uchun tilim.
Indamay kelasiz,
Kelasiz, vaqt kelar,
Kelasiz,
Baxt kelar;
Tosh solaman og'zimga
Ginalarni so'ylamasin
uchun tilim...*

* * *

*Dunyoda eng og'ir tosh -
qabr tosh.
Buguning ertang talosh,
ta'bir tosh.
Yo'lda yo'liqib behos,
jabr tosh.
Yig'lab turar beovoz-
sabr tosh.
Tosh qoldirmay o'tganlar bor,
Ular -
Tosh-tog'larni yutganlar,
Qor, suvlar...*

* * *

*Aldab-suldab meni sen, xuzurlanasan,
Huzurimdan uchmoqqa xozirlanasan.
Hozir yonimdamisan, ichmagin qasam,
Bor-yo'q, kam-ko'sting bilan menga yoqasan.
Huzurimda uzringni omon ko'raman,
Bilsang qasamxo'rlarni yomon ko'raman,
Lek sening uzring qabul qilmay iloj yo'q,
Yo'qsa na ishq, na ishda avj yo'q, rivoj yo'q.
Bu qanaqa iltifot, bu qanday sadqa,
Tosh otganining yaxshiydi, otgandan paxta.
Qabul etib yo'g'ingni, borimni tutgum,
Naxot shu huzuring-la, yorilib ketgum?
* * **

*Sendan nari bo'lmoqqa ilojim yo'qdir,
Ishlarim o'lda-jo'lida, rivoji yo'qdir.
Sensiz qaynoq hayotdan sovib boraman,
Seni o'lmas qanotda quvib boraman.
Sadoqatli sevgimdir o'lmas qanotim,
Sadoqating sezdimmi, tolmas qanotim!
Senga hamma narsani aytgim keladi,
Sen bilan sirlashmoqqa payt ham keladi
Chunki yonib yashayman sevinchlar bilan,
Seni tanib yashayman ilinjlar bilan.
Chunki men ishonaman o'zimga juda,
O'ziga ishonganlar yashar orzuda...*

* * *

*Qog'oz, qalam, bo 'yoq singib qaro kechaga,
Lash-lushini yig'ishtirib chiqdi ko'chaga.
"G'o'r bolalik ko'zi ko'r" der, "Daldasi yolg'on,
Karomati, aytar so'zi, va'dasi yolg'on" ...
Birdan boqdi ne qilay deb turgan qo'llarga.
Xayollari havolandi uzoq yo'llarga,
Orzu qushin qanotlarin silagan qu'llar.
Xarakatda barakatli hayotga yo'llar.
Lash-lushini yig'ib yana qaytdi iziga,
Olamni suv bossa chiqmas endi tizziga.
Bola bo'lib bir soniya yashab ko'rgandi,
Shu kunni deb axir bir payt yonib yurgandi.*
* * *

*Siz mening ovunchog'im va yupatuvchim,
Dilgir xayollarimning dilbar hamdami.
Siz-la oroyish ruhim, tabiat-tinchim,
Siz pora yuragimning yakkash malhami.
Garchand bizlarni taqdir kech uchrashmidtirdi,
Yo'limiz ham bir umr ayridir, ayri.
Lekin aritib dildan bir umr dardni,
Bu uchrashuv kashf etdi bir gulshan sayrin.
Bu shundayin gulshanki, nurlari shaffof,
Pokiza tuyg'ular-la bo'yi qorishiq.
Istagim: tuyg'ularim etmay e'tirof,
Ushbu gulshan sayridan qilmangiz forig' ...*

* * *

*Uzaytirib kunlarni, qisqartirib umrni,
Hech kim bilan ishi yo'q, yer aylanadi.
Yetaklab tog'-bog'larni, bemorlarni, sog'larni,
Bag'ri hamisha to'liq, gir aylanadi.
Keng zangori osmon ham, ona quyosh, posbon
ham,
Yashaydi bizlar bilan, yer-la aylanib.
Vaqtimiz tayin, o'tar, dag'alu mayin o'tar,
Bog'lanib orzuga yo, yelga aylanib.
Umr shu zayl kechar, umr jumbog'in yechar,
Ezgu dillarga doim bir najot yordir.
Xavolarni to'ldirib, havotirni o'ldirib,
Taralgan nasimlarda hur hayot bordir.*
* * *

*Vaqt keldi, bir yoqlik qilmoq vaqtı,
Yo qoralik, yo oqliq qilmoq vaqtı.
Ko'zni bo'yab yashamoqlik bas endi,
Juft bo'lsak juft, yo toqlik qilmoq vaqtı.
Yuragimning xijili, xijil shundoq,
Umr otliq kalavam chigil shundoq.
Aytay endi, yashamaylik yashashda,
Yetim qolgan ishqqa kamand tashlashda.
Kelsa kelsin zamon oxir, davr, o't,
Oxiratni obod aylar sabr, o't.
Xaqiqatning tantanasi, assalom,
Bor-yo'qligim falsafasi rost kalom.*

* * *

*Ko'ngli qaro o'g'rilar qaro tunda yuradi,
O'rgangan ko'ngil qo'y may, aro kunda yuradi.
Keltirar g'alamislar, sichqon sifatlar,
Quduqqa tushgan sichqon kabi kulfatlar.
O'g'rini boplab, qaro tunni yorit dil,
Sichqon tushgan quduqning suvin arit dil.
Ko'ngilga qo'yib bersang, nimalar qilmas,
Uyatni bilmay nima nag'malar qilmas,
Ko'rpangga qarab oyoq uzatishni bil,
Ayb qilsang, mard bo'lib tuzatishni bil.
Ko'zgu bo'lib vaqtida o'zing oqla, dil,
Bachkana qiliqlardan o'zing saqla dil!*

* * *

*Baxt mungsiz bo'lmas, obod et dilim.
Tun kunsiz bo'lmas, sabr et, gulim.
Baxt qoshiga kim ho'mrayib borar,
Dil och turmay jim, yurak yolvorar!
Yugurib chopay-o'zimning yo'lim!
Izlanib topay, bog'u tog', ko'lim.
Tup qo'y, palak ot, chaman et cho'lim,
Oldinda hayot, sabr et, gulim!
Rahmat, ming rahmat, sen kelgan onga,
Kim chekmay zahmat, chiqqan davonga?
Sadoqatlilar visolga yetgay,
Vafolilarga baxt nasib etgay.*

* * *

*Sizga qarab qo'ysam goho o'tli ko'z bilan,
Lab juftlasam sizga agar o'tli so'z bilan,
Siz qaytarib tashlamang tund nigohlar bilan,
Qaro bo'lib o'tar u kun g'am-ohlar bilan.
Siz qarshimda o.ltirarsiz ishlar bilan band,
Har kun ming bor o'ldirarsiz dil etib payvand.
Sizga maftun bo'lib bu tan yonib bormoqda,
Sizni sevib o'zgalardan tonib bormoqda.
Sevishga-ku sevib qo'yib xijolatdaman,
Na o'ngimda, na tushimda halovatdaman.
Behalovat kunlar haqqi, dilpora etmang,
Qarshimda hech o'zgalarni dildora etmang...*

* * *

*Meni Toshkent, seni Namanganda yaratgan,
Bilib bilmay bir jonu bir tanda yaratgan.
Masofadan norizo hayf desak taqdirga,
Ishqimizdan tog'lar parokanda yaratgan.
Sabr tog'in zabit eturmiz hafta oralab,
Bulbul chaqchaqlagan g'ayri onda yaratgan.
Faxrkim tush, xushlar aro farqsizlik mudom,
Oshiq ahlin g'uluv g'alayonda yaratgan.
Otabekdan ortda qolmay majnuna Zaynab,
Kumushman deb mozor kezgan onda yaratgan.
Ey Umida, ko'ngil endi taqdir hukmiga,
Bu muqaddas g'amni Alloh jonda yaratgan.*

* * *

*Seni sevmay qo'yganimga ko'p bo'ldi,
O'ylab ko'rsam ajab bo'ldi, xo'p bo'ldi.
Visolingu firoqingda kuymayman,
Hammasini sokin kunlar yeb bo'ldi.
Katta-kichik davralarda uchrashsak,
Ko'zlarimmas, so'zlarim ham chap bo'ldi.
Sendan butkul voz kechganim rostligi,
Do'stu dushman aro rosa gap bo'ldi.
Sevmay qolish mumkin ekan, mumkinmas
Yana nima qoldi, bari daf bo'ldi.
E'tiqodim kuchli derdim, subutda
Turmoqlik ham isbot bo'ldi, sob bo'ldi.*
* * *

*Bu qanday afsundir, bu qandayin kuch,
Seni mendan sira ayirolmashlar.
O'z yo'lim bor neki dovga kelsam duch,
O'z ko'nglim, qanotim qayırolmaslar.
Xayollar xayiqmay yetib boradi
Oyog'im yetmagan manzillarimga.
Bu ko'ngil ko'nglini senga yoradi,
Nur olib kirgansan mavzularimga.
O'sha nur ko'zimni shu'lalantirar,
O'sha nur yo'limni tizgandir ipga.
Bu qanday tasodif, bu qanday taqdir,
Bu sensan, bu menman, so'z yo'q ta'rifga...*

* * *

*Uchrashdilar ikki yosh nogoh,
Buncha visol zavq-shavqi yaxshi!
Hayajonli damlarga ogoh
Olov yuzda muhabbat naqshi.
Termuladi mehribon, kulib,
Bir-birovga behad mushtoq ko'z.
Biri bulbul, biri gul bo'lib,
Go'yo kuylar demay biror so'z.
Mastu hayron olam bu KUYdan,
Mangu chaman sahro ham, cho'l ham...
Yaralgandir ODAM shu kuydan,
Shu kuya, DIL, bir umr chulg'an!*
* * *

*Buncha kelib qoldi sovchilar,
Maqsadlari nimadir asti?
Ko'p tikilgan o'sha "ovchi"lar
Balki meni "ovlamoq" qasti?
Xali yoshman, yoshman-ku, onam,
Buncha ular keti uzilmas?
Ular kelib, bo'lib parvonam,
Behudaga reja tuzilmas.
Ayting, o'sha sovchi xolalar
Kelishmasin bunday damo-dam.
Har kelishi xayolga solar,
Hali yoshdir bilsangiz u ham!*

* * *

*Namozshomda ochilgan gullar,
Yumilsinlar, mayli, choshgohda.
Jala quysin ushlashib qo'llar?
Bizlar quvnab yurgan chorborg'da.
Qoracho'g'lar cho'g'in ko'rsatmay,
Egilmasin uzun kipriklar.
Mavzularim poyonga yetmay,
Orzum ko'milmasin tiriklay,
Faqat jonim, siz arazlamang.
Sambitguldek barno qomatlar,
Chog'lanmasin bizdan uzoqqa.
O'z yog'ida qovrilib qalbar,
Dog'lanmasin tushib tuzoqqa,
Faqat jonim, siz arazlamang...*

* * *

*Bir ko'riniq yo'qolding, yo ohumiding,
Dil o'ynatib boqolding, yo og'umiding?
Ko'z oldimda qoldi faqat barno bo'ying,
Parimiding, parilarga jodumiding?
Qaydin qayga kelib ketding ey mahliqo,
Bir lahzalik chaqmoqmiding, yog'dumiding?
"Xayr" deya silkindilar kokillaring,
Kuylaganim, o'ylaganim mavzumiding?
Noyob umid bo'lib kelding Umidaga,
O'zgaga ham umidmiding, orzumiding?*

* * *

*Kecha kutdim ko'chasida, ul mohitob chiqmadi,
Kecha bo'ldi kunduz ko'ngil, yuzi oftob chiqmadi.
Ko'klarida ovoralar bo'ldi ko'ngil qushlari.
Loaqal bir laxzaga aylab itob chiqmadi.
Kelgan edim kuy-qo'shiqqa qalbim to'lib shavq bilan,
Hech bo'lmasa qo'shig'imga uydan javob chiqmadi.
Yuzga parda tortishibdi sayyoralar bu kecha,
Hilola ham sayr etgali yo shu sabab chiqmadi.
Yoshim daryo bo'lib toshdi, xajrida yig'lab erdim,
Yakkash chora topguchi toshqinga mirob chiqmadi.
Gar Umida yozsa kitob bo'lgay bedor bu kecha.
Orzum visol edi, qilsam hamki xitob chiqmadi.*

* * *

*Ishq yo'lining aziyati, gul tikoni bor,
Allohning in'om etgan ishq imkoni bor.
Ko'ngling moyil bo'lsa-da, roz aytishga shoshma,
Roz aytishning ham mavridi, ma'lum oni bor.
Aql kunda, husn to'yda kerak deydilar,
Ishq uyining vayronasin ko'p yomoni bor.
Ko'zing bog'lab, diling dog'lab ketguvchilar ko'p,
Aql umri boqiy, husn - gul, xazoni bor.
Sezmagaysan ko'nglimni deb, ta'na qilmagin,
Jafokash jon qadr topgay, jon jononi bor.
Talay oshiq yo'liqyapti yo'lida lekin,
Umidaning "Xo'p"iga zo'r imtihoni bor.*

* * *

*Sinamoqni istayman, kelgil yaqinroq.
Sevishimni istasang, bo'l avval inoq.
Yo'qotmagil qarshimda so'zlariningi sen.
Agar sevsang yashirma ko'zlariningi sen.
Ko'zlariningdan olayin qalbingni tanib.
Qalbimga ishq solayin, yonib, o'rtanib.
Men ham sevmoq istayman, kelgil yaqinroq.
Mayli, beg'am dilimni o'rtasin firoq.
Mayli, ko'zim toldirsin quyoshdek visol.
Mayli, otash qalb bilan nigohingni sol.
Kungaboqar doimo boqqanday kunga,
Seni deb yakkash men ham talpinay senga.*

* * *

*"O'rtanmoq" so'zi bor.
"Ich-ichingdan qiynalmoq",
"Kuymoq",
"O'zingni qayoqqa bilolmay qo'ymoq..."
Yomg'irning shitiri, bargning shivirin,
Qaldiroq oldidan chirs etgan chaqmoq
Misoli qalbingni turgan kemirib,
"O'rtanmoq", "Qiynalmoq", "Kuymoq",
"O'zingni qayoqqa bilolmay qo'ymoq..."
Ming bir azob bilan tuygan so'zingni
Sharros jalasidan so'ng qilsa ahmoq,
Quvonchga ro'baro' qilsa o'zingni!..*

* * *

*Suydirding meni, kuydirding meni,
Shirin jonimdan,to'ydirding meni!
Orqangda qolib,yasharman nolib,
Ketding quvonchim oldingga solib!
Ba'zan urishib,pinphon kurashib,
Yurarman ag'yor bilan uchrashib!
Sening tiling yo'q,qilolmaysan do'q,
Zabun holimni bilolmaysan, yo'q!
Yo'q deb yo'g'ingda,kuydim cho'g'ingda,
Uchdim bemavrid otgan o'qingga.
Talpinib senga,yo'q dedim nega,
Ishq hajri menga,vafosi senga!*

* * *

*Olamni oqqa belab, qor yog'di.
Oq hislar elab-elab, zo'r yog'di.
Rizqu nasiba bo'lib xo'p yog'di.
Yangi yil chorlar kulib, dil chog'dir!
Bu chog'likdan yurt uzra kuy oqdi,
Oppoq turna qanotin hur qoqdi.
Hurriyat, shod hayotim tark etma.
Xomush o'y-xayollarga g'arq etma.
Bahorimni aritib, muz qilma.
Olamimni qaritib, kuz qilma.
O'tkazib navbat bilan fasllarni,
Ko'ray tolei baland nasllarni!*

* * *

*Eng qiyini o'zingdan talab qilmog'ing.
O'zing o'z bahoingni halol bilmog'ing.
Qolgan narsa hech narsa, ko'p nari borsa
Pandu nasihatlarni ilmay, ilmog'ing.
Eng qiyini o'zingni qo'lga olmog'ing.
Urib turgan yurakni "Yo'lga" solmog'ing.
Yo'lga sola bildingmi, marra seniki,
Yashil chiroqlar aro umr salmog'ing.
Bunday hayot menga hech nasib bo'lmajak,
Qorbobo yo qorqiz qor bosib kelmajak.
Ular kelar quyoshim tik kelganida,
Aqlga bo'yin bermas yurak - kelajak...
* * **

*Seningsiz kunlarim kunmas, kelib ko'r.
Bog'im bog'mi, giyoh unmas, kelib ko'r!
Shomu sahar navo bilmay, davo bilmay,
Shisha ko'ngil darzu sinmas, kelib ko'r.
Hamma birdek Layli-Majnun emas bunda,
Besh kunlik bu dunyo chinmas, kelib ko'r.
Bu g'urbatni yakka o'zi kecha-kunduz
Umid bilan yashab yengmas, kelib ko'r.
Gar kelmasang qaytar dunyo sabog'idan,
Sen ham senmas, men ham menmas, kelib ko'r.
Seningsiz qush uyqu topgan Umidaga,
Hajru vasl zavqi tengmas, kelib ko'r.*

* * *

*She'r o'qishni yaxshi ko'raman,
Yaxshi she'rga doim xumorman.
Gohi men ham yozib turaman,
She'r yozishda qalbi bahorman.
Bahor misol toshqin, sehrli,
Jo'shib turar qalbganam doim.
Go'zal satrlarda mehrli,
Qalbim tushirgim bor muloyim.
She'r o'qishni yaxshi ko'raman,
She'r - nafosat, she'r bayoni dil.
Gohi men ham yozib turaman,
Yozganidan lek to'lmas ko'ngil...*
* * *

*O'qish, ishlash, uydagi yumush,
Goho charchab, qolmaydi holim.
Xayolimda bir mizg'ib olish...
Shu dam kelar qurg'ur ilhomim.
Yotgan joyda labim pichirlab,
She'rga ishqim turar oyoqqa.
She'r to'qiyan, qalamim imlab,
Chaqiradi ko'chirib oqqa.
Qofiya-yu, vaznda to'xtab,
Ancha vaqt bosh qotiraman.
Shoirlarda bo'lmas ekan dam,
Ko'plab shunday tong ottiraman.*

MUNDARIJA

So'z bowi	3	Yoshlik, yoshlik	54
Kuyinchaklik	4	Muhabbatsiz, umidvor	55
Men qurol yasamayman	6	Go'zal, go'zaldir	56
Uzoq umr ko'rishning sababi	10	Tikilib, sening	57
Sovchilar		Tushimda Tushimda ham,	58
Masxaralab ,taqdim etding	24	Tush bilan, tushimda	59
Maxliyosan,bir-birimiz,agar menga yuk	25	Ayol bir, o'ylatar	60
Qaysi ishga, mag'rur bolma,quvonchingdan	26	Bo'salar, ayol qadrlanar	61
Mol-dunyo,sen gapirib,omi er	27	Assalom!..	
Rashkchimishman,vaqtikiygan to'ning	28	Darak bermay ketgan	62
Ijodkorning,nogaxon,beruvchi,	29	Chust do'ppisi,dimog'i	63
Dushman,do'st do'stiga, tavakkal ..	30	Sevgilim, mendan maysa	64
U bilmaydi,sen menga ,sen bilanki, ..	31	Tushunuksiz, endi g'amming	65
Yurt, ko'zimni yumdim, daraxt	32	Manfaat bulbullar	66
Oshiqib,yalinmaydi,nimadir	33	Meni qo'ygil, pishiqlik	67
Ba'zilar,agar, osmondan	34	Sezmaysan, yomg'ir yog'ib,	68
Sen aytgandek, chaqchaqlashsang,tug'ilgan	35	Tani sog'lilik, o'lim yiroq	69
Bayamlarda,oppoq tong,o'rik gulli	36	-yuragingga, hayot - toshqin suv,...	70
Men o'yindan,oxir,sen kulishni....	37	Yurtimda, yomonlikni	71
Quyosh,tun,men sevaman bahorni,	38	Yo'llarimda, hech gap emas	72
Yuragimga,yurak, xayollarim	39	Sendan so'z, indamasdan	73
O'y-xayoli,yana sog'ina," qora qiz" der	40	Sen haqingda,qo'ng'ir sochli,	74
Havasim,xo'rsinadi,buvim,	41	Sen sevgidan,sendan ko'nglim	75
Rad etilgan,men senga,visol,	42	Sendeklarni,o'zimni oyga,	76
meni, seni, shoshqin suv,aql bilan, ..	43	Rozi bolsang,kechir meni,	77
Surat qarshisida		Ochig'i ini aytay,sevishganlar ,	78
Yarim baxtdir,kulib	44	Qayda bulut,bugun qarib	79
Bir ovoza,tangri,yordan	45	Seni juda,men seni osmonga	80
Yaqinlashib,cho'ntagi,seni sevgan ..	46	Men ko'p o'tar, har kuni	81
Sening,umr,buncha	47	Sen ketsang ketaman hafaqon,	82
Uyqu,yaxshi she'rlar, she'r	48	Ketaver,kelib ketaver,	83
Sen ishon,to'lqinlar,faqat orzu ..	49	Sen bilasan,ko'zlarining dan ayon ..	84
Seni,qo'lingni, sevgingni	50	Jonim,yaxshi ko'rishimni	85
Ko'nglim,men sizni, ul yigitni ..	51	Senga noma meni avf	86
Ko'rib turib, bu dunyo,kim mayda	52	Sen bir so'zga, baxt izladning,.....	85
Sizni sevib, o'ylarini,yuz pokiza		Bunchalar ham, bir narsani	88
Yoshligim		Avval seni sevmayin	
		Men o'zimga	89
		Rashk ko'zimming oldida	90
		Tengdoshlar , "rashkchi" deysan	91
		Bir hovuch ,orzumand tuyg'uga	92
		Nima qilgan,seni ko'rmoq kerak	93



Quyosh yuzin,osmondan bir cho'g'	94	Hech gap emas, marjon	110
Menga ayon, xatosini yashirib	95	Uymalanib, kel, ey dilbar,	111
Uyg'onmasman,bedorlikdan		Sevgisini, beayb kun,	112
to'lg'onib	96	Indamay, dunyoda eng og'ir tosh	113
Tongim,subhidam yellari	97	Aldab-sulda, sendan nari	114
Men bilan,qo'lingni qo'limga	98	Qog'oz, qalam, siz mening	115
"Sevmayman" deb,sevasizmi?- deb	99	Uzaytirib, vaqt keldi,	116
Nafratlana,e'tiqodim	100	Ko'ngli qaro, baxt mungsiz	117
Dengizdag'i, shamol olib	101	Sizga qarab, meni toshkent,	118
Navqiron,yangi yil,	102	Seni sevmay, bu qanday	119
To'xtab qolgan, kalendarning	103	Uchrasdiilar, buncha kelib	120
Men sen bilan, gar istasam,	104	Namozshomda, bir ko'rinish	121
Jonim, meni ,"Jonim" deding,	105	Kecha kutdim, ishq yo'lining	122
Meni, seni, oh bilan	106	Sinamoqni, o'tanmoq"	123
Hey, siz , Alloh meni o'yнатиб	107	Suyirding meni, olamni oqqa	124
Darak bermay, sokin dunyo,	108	Eng qiyini seningsiz kunlarim	125
Meni desang, yomon bo'ldi,	109	She'r o'qishni, o'qish, ishslash,	126

Umida ABDUAZIMOVA

MARVARIDLARIM

(She'rlar)

Muharrir N.Mirzayeva

Texnik muharrir: E. Otamurodova

Sahifalovchi: N. Ergasheva

Nashr. lits. AI № 191, 10.05.2012

Bosishga ruhsat etildi 31.05.2013 y. Bichimi 60x84 1/16

Ofset qog'oz'i. Rizograf usulda.

Shartli bosma tabog'i 8. Nashr. hisob tabog'i 7,3. Adadi 500

"CHASHMA PRINT" MCHJ nashriyoti.
100071. Toshkent, Komolon ko'chasi, 13.

"ZAMON POLIGRAF"OK matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent, Yunusobod tumani, B.Tillayev, 45-uy.

Tel: (99871) 223 12 02, (+99890) 349 01 78, (+99890) 916 81 76.

E-mail: umida.abduazimova53@mail.ru